

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 170 (1769), 2026-yil 22-avgust, shanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news



PREZIDENT ILHOM ALIYEV: “OZARBAYJON VA O‘ZBEKISTON O‘RTASIDAGI MUNOSABATLAR MUSHTARAK TARIX, MADANIYAT, TIL VA MA’NAVIY QADRIYATLARGA TAYANADI”

Ozərbayjon Respublikası Prezidenti İlham Aliyev mamlakatimizga davlat tashrifi arafasida katta intervyu berdi.



— Hurmatli Prezident janoblari, so‘nggi yillarda Ozarbayjon — O‘zbekiston munosabatlari jadal rivojlanib, eng yuksak bosqich — ittifoqchilik darajasiga ko‘tarildi. O‘zbekistonga yaqin vaqtda kutilayotgan davlat tashrifyingiz arafasida ikki tomonlama munosabatlarning bugungi holati va rivojlanish istiqbollarini qanday baholaysiz?

— Ikki qardosh mamlakat — Ozarbayjon va O‘zbekiston o‘rtasidagi munosabatlar

mushtarak tarix, madaniyat, til va ma’naviy qadriyatlar, shuningdek, xalqlarimizning asrlar osha, avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan birdamligi, hamjihatligi va chuqur o‘zaro mehr-oqibatiga tayanadi. Ana shu mustahkam poydevor asosida qurilgan davlatlararo munosabatlar so‘nggi yillarda misli ko‘rilmagan rivojlanish bosqichiga kirib, eng yuksak pog‘ona — ittifoqchilik darajasiga ko‘tarildi va mutlaqo yangi mazmun kasb etdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, mening aziz birodarim, hurmatli Shavkat Miromonovich Mirziyoyev bilan o‘rtamizdagi samimiy do‘stlik, o‘zaro hurmat va ishonch Ozarbayjon — O‘zbekiston qardoshligini mustahkamlash, davlatlararo aloqalarni bugungi darajaga olib chiqish va ittifoqchiligimizni rivojlantirishda alohida o‘rin tutadi. Prezident Mirziyoyevning mamlakatlarimiz qardoshligi, birligi va

ittifoqchiligi yo‘lidagi tinimsiz va qat’iyatli faoliyati Ozarbayjonda unga nisbatan chuqur hurmat va mehr uyg‘otgan.

Aytib o‘tganimdek, davlatlarimiz o‘rtasidagi siyosiy muloqot juda yuqori darajada. Shubhasiz, oliy darajadagi muntazam o‘zaro tashriflar — so‘nggi besh yilda ularning soni 15 tani tashkil etdi — va yaqin muloqotlarimiz ushbu aloqalarni jadal rivojlantirish hamda mustahkamlash uchun qulay sharoit yaratmoqda.

Oxirgi besh yilda bu mening qardosh mamlakatga uchinchi davlat tashrifim va umuman olganda yettinchi tashrifim bo‘ladi. Go‘zal va betakror O‘zbekistonga har bir tashrifim men uchun alohida ahamiyatga ega bo‘lib, doimo katta mamnuniyat bag‘ishlaydi. An‘anaga ko‘ra, bu tashriflar yuksak mehmondo‘stlik, qardoshlik, samimiyat va o‘zaro anglashuv muhitida o‘tadi. Qardosh O‘zbekistonga har safar kelganimda, ayniqsa, so‘nggi yillarda mamlakatning barcha sohalarida jadal rivojlanayotganini ko‘rib, quvonaman. Zamonaviy shaharlarning barpo etilishi, iqtisodiyotning diversifikatsiya qilinishi, yirik infratuzilma loyihalarining amalga oshirilishi, ilm-fan, ta‘lim, madaniyat va sport sohalariga qaratilayotgan e‘tibor mamlakatning yuksak o‘sish sur‘atlarini yaqqol namoyon etmoqda.

O‘zbekiston yetakchisi, hurmatli Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning dono rahbarligi ostida mamlakatni har tomonlama rivojlantirish va ravnaq toptirish yo‘lida izchil amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli ishlar, O‘zbekistonning xalqaro nufuzi tobora yuksalayotgani va barcha asosiy tarmoqlarda erishilayotgan salmoqli yutuqlar samimiy hurmat va chuqur mamnuniyat uyg‘otadi. Bularning barchasi Prezidentning puxta o‘ylangan siyosati, strategik qarashlari,

Vatanga muhabbati va samarali davlat boshqaruvining natijasidir.

2024-yil avgust oyida mening O‘zbekistonga davlat tashrifim, 2025-yil iyul oyida esa O‘zbekiston Prezidentining Ozarbayjonga davlat tashrifi bo‘lib o‘tdi. Ikki tomonlama tashriflar doirasida imzolangan ko‘plab hujjatlar, xususan, Strategik sheriklikni yanada mustahkamlash to‘g‘risidagi deklaratsiya va Ittifoqchilik munosabatlari to‘g‘risidagi shartnoma ikki mustaqil, kuchli va suveren davlatlarimiz o‘rtasidagi tabiiy ittifoqchilikni rasman mustahkamladi. Ular mamlakatlarimiz o‘rtasidagi aloqalarning huquqiy va siyosiy asoslarini yanada kuchaytirib, kelgusidagi hamkorligimizni rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar ochdi.

Shu bilan birga, 2023-yil avgust oyida tashkil etilgan Oliy davlatlararo kengash Ozarbayjon va O‘zbekiston o‘rtasidagi strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini chuqurlashtirishning muhim institutsional mexanizmiga aylandi. Mazkur platforma davlatlarimiz o‘rtasidagi hamkorlikning uzoq muddatli ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, yangi tashabbuslarni ilgari surish va turli sohalaridagi hamkorlikni samarali muvofiqlashtirishga xizmat qilmoqda. Kengashning Toshkent va Bokuda o‘tkazilgan ikki yig‘ilishi Ozarbayjon — O‘zbekiston munosabatlarining yuksak sur‘atlarda rivojlanayotgani, siyosiy



muloqotning izchilligi va davlatlarimizning istiqbolga mo‘ljallangan qo‘shma faoliyatga qat’iy intilishini ko‘rsatmoqda.

Bugun siyosiy munosabatlarning iqtisodiyot, investitsiyalar, sanoat, transport, logistika, energetika, qishloq xo‘jaligi, ta‘lim, ilm-fan, madaniyat va gumanitar sohalaridagi keng ko‘lamli amaliy hamkorlik bilan yanada boyimoqda. Amalga oshirilayotgan loyihalar mamlakatlarimizning iqtisodiy salohiyatini birlashtirish bilan birga xalqlarimiz o‘rtasidagi do‘stlik va qardoshlik rishtalarini yanada mustahkamlamoqda.

Davomi 2-betda

OZARBAYJON PREZIDENTI DAVLAT TASHRIFI BILAN O‘ZBEKISTONDA BO‘LADI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyev 23-24-avgust kunlari davlat tashrifi bilan mamlakatimizda bo‘ladi.

Toshkent shahrida oliy darajadagi muzokaralar hamda O‘zbekiston va Ozarbayjon yetakchilari raisligida Oliy davlatlararo kengashning uchinchi yig‘ilishini o‘tkazish rejalashtirilgan.

Sammit kun tartibidan O‘zbekiston — Ozarbayjon strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini yanada rivojlantirish va kengaytirish masalalari o‘rin olgan.

Tovar ayirboshlash hajmini oshirish, ishbilarmon doiralar va hududlar o‘rtasidagi kooperatsiyani chuqurlashtirish, transport-tranzit sohasidagi imkoniyatlardan samarali foydalanish, faol madaniy-gumanitar

almashinuvni davom ettirish masalalari diqqat markazida bo‘ladi.

Davlat rahbarlari xalqaro va mintaqaviy siyosatning dolzarb jihatlari yuzasidan ham fikr almashadilar, ko‘p tomonlama tuzilmalar doirasidagi hamkorlik masalalarini muhokama qiladilar.

Muzokaralar yakunida salmoqli hujjatlar to‘plamini imzolash hamda qator iqtisodiy va gumanitar loyihalarini ishga tushirish ko‘zda tutilgan.

Qayd etish joizki, ayni kunlarda O‘zbekistonda ikki mamlakat hududlari forumi hamda boshqa qo‘shma tadbirlar o‘tkazilmoqda.

O‘ZA

BIZNES RIVOJLANISHI UCHUN YAGONA EKOTIZIM YARATILADI

Keyingi yillarda O‘zbekistonda qulay ishbilarmonlik muhiti shakllandi. Xususiy sektor iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismiga aylandi. Qisqa muddatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakat yalpi ichki mahsuloti, bandlikni ta‘minlash va iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashda muhim o‘rin egallay boshladi. Bularning barchasi tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan ulkan islohotlar samarasidir.

O‘tgan davrda davlatning iqtisodiyotdagi ishtirokini qisqartirish, investitsiya muhitini yaxshilashga qaratilgan institutsional o‘zgarishlar tadbirkorlik faoliyatini yanada qo‘llab-quvvatlash va raqobat muhitini kuchaytirishga xizmat qila boshladi. Ma‘muriy to‘siqlarni kamaytirish maqsadida tadbirkorlik subyektlari uchun ro‘yxatdan o‘tkazish tartiblari soddalashtirildi. Ishbilarmonlikni rivojlantirish uchun bank tizimi orqali imtiyozli kreditlar ajratish, investitsiyalarni jalb qilish, erkin iqtisodiy zonalar tashkil etish kabi choralar ko‘rildi. Ma‘muriy cheklavlar qisqartirilib, valyuta siyosati liberallasuvi, soliq tizimini

takomillashtirish hamda xususiy mulk himoyasini mustahkamlash kabi muhim vazifalar hal etildi. Natijada iqtisodiyot tarmoqlarida faollik oshdi. Ishbilarmonlik muhiti yaxshilandi va kichik biznesning yurt taraqqiyotidagi ulushi sezilarli darajada orta boshladi.

Barcha sohada tadbirkorlik uchun keng imkoniyatlar yaratilishi ortidan endi oddiy odamlar ham o‘z xonadonida tadbirkorlik bilan shug‘ullana boshladi. Kichik biznes turlari kengayib, odamlarni ish va daromad manbai bilan ta‘minlashning samarali mexanizmiga aylandi.

Davomi 2-betda

MILLATNI UYG‘OTGAN LIDER

AQSHda tashkil etilgan “MILLAT SHAHVKATI” kitobi taqdimoti taassurotlari



Ummon ortidagi olis mamlakatdan taniqli o‘zbek publitsisti, siyosatshunos Qudratilla Rafiqovning yaqinda nashr etilgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining so‘ngi yillardagi faoliyatiga bag‘ishlangan “MILLAT SHAHVKATI” kitobining AQSHdagi yurtdoshlarimiz uchun taqdimotiga taklif kelganida nihoyatda xursand bo‘lib ketdik. Bu quvonchning asosiy sababi buyuk shoirimiz Abdulla Oripov ta‘rif etgan “sehrli diyor”ga oshiqish emas, balki yangi O‘zbekistondagi ulkan evrilishlar, millatimiz liderining oqilona siyosatiga okeanortidagi vatandoshlarimizning qiziqishi va xayrixohligi edi. Zotan, “MILLAT SHAHVKATI” ayni shu haqdagi teran fikrlar bayon etilgan tahliliy asardir.

O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi, ustoz jurnalist Abdusaid Ko‘chimov hamrohligida ijodiy guruhimiz bilan Amerikaga yo‘l olar ekanmiz, o‘tgan yili bu o‘lkaga qilgan safarimiz taassurotlari xayoldan o‘ta boshladi.

2025-yili ayni avgust oyida Qudratilla Rafiqovning ingliz tilida chop etilgan “Yangi

O‘zbekiston: Shavkat Mirziyoyev yo‘li” kitobining taqdimoti Vashington shahrida, AQSH kongressi binosida, so‘ngra BMT bosh qarorgohida 50 dan ziyod mamlakatning mazkur tashkilotdagi vakillari ishtirokida bo‘lib o‘tgandi.

Davomi 3-betda

Prezident qarorlari — hayotda va nazoratda

IJRO INTIZOMI — TARAQQIYOT VA NATIJADORLIK MEZONI

Bugungi globallashtirish va kuchli raqobat davrida har qanday davlat, tashkilot yoki jamiyatning taraqqiyoti, avvalo, qabul qilingan qarorlar va belgilangan vazifalarning qay darajada amalga oshirilganiga bog‘liq. Reja va g‘oyalar qanchalik mukammal bo‘lmasin, ularning ijrosi ta‘minlanmasa, kutilgan natijaga erishib bo‘lmaydi. Shu ma’noda, ijro intizomi har qanday taraqqiyotning asosiy omili va natijadorlik mezonidir.

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda davlat boshqaruvi tizimida ijro intizomini mustahkamlashga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Chunki har bir qonun, qaror va dastur, avvalo, inson manfaatiga xizmat qilishi, xalq hayotida amaliy natija berishi lozim. Bu esa mas‘ul rahbar va xodimlarning vazifaga sidiqdildan yondashishini talab qiladi.

Davomi 4-betda

PREZIDENT ILHOM ALIYEV: “OZARBAYJON VA OʻZBEKISTON OʻRTASIDAGI MUNOSABATLAR MUSHTARAK TARIX, MADANIYAT, TIL VA MAʼNAVİY QADRIYATLARGA TAYANADI”

► Boshlanishi 1-betda

Ishonchim komilki, boʻljak tashrif ham mamlakatlarimiz oʻrtasidagi koʻp qirrali hamkorlikni yanada kengaytirish, yangi qoʻshma tashabbuslarni amalga oshirish va ittifoqchilik munosabatlarimizni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

— Ozarbayjon — Oʻzbekiston munosabatlarining muhim yoʻnalishlaridan biri savdo-iqtisodiy hamkorlikdir. Bu sohada erishilgan yutuqlar haqida nima deya olasiz?

— Savdo-iqtisodiy hamkorligimiz soʻnggi yillarda jadal rivojlanmoqda. 2025-yilda Ozarbayjon va Oʻzbekiston oʻrtasidagi tovar ayirboshlash hajmi avvalgi yilga nisbatan 3 barobardan ziyod koʻpayib, 795 million AQSH dollarini tashkil etdi. Bu juda yaxshi koʻrsatkich. Shuningdek, 2026-yil yanvar-may oylarida tovar ayirboshlash oʻtgan yilning shu davriga nisbatan 33 foizga oʻsib, 144 million AQSH dollariga yetdi.

Uch yil avval umumiy kapitali 500 million AQSH dollari boʻlgan Ozarbayjon — Oʻzbekiston investitsiya kompaniyasining tashkil etilishi mamlakatlarimiz oʻrtasidagi investitsiyaviy hamkorlikni rivojlantirish uchun muhim platforma yaratdi. Kompaniya Ozarbayjon va Oʻzbekiston iqtisodiyotining turli tarmoqlaridagi istiqbolli loyihalarni moliyalashtirish va amalga oshirishga salmoqli hissa qoʻshmoqda.

Bundan tashqari, Hukumatlararo komissiya iqtisodiy, savdo, investitsiya va boshqa sohalaridagi aloqalarni rivojlantirishda muhim oʻrin tutadi. Bugunga qadar komissiyaning 15 ta yigʻilishi oʻtkazildi. Yaqinda Toshkentda boʻlib oʻtgan navbatdagi yigʻilishda Ozarbayjon — Oʻzbekiston savdo-iqtisodiy hamkorligining bugungi holati, erishilgan natijalar va kelgusidagi rivojlanish yoʻnalishlari atroflicha muhokama qilindi.

Energetika sohasidagi hamkorligimiz ham faol rivojlanmoqda. Oʻzbekistonning “OʻZLITINEFTGAZ” va “SOCAR”ning “NIPi Neftgaz” institutlari negizida tashkil etilgan “Neftgaztexnologiya” qoʻshma korxonasi 2016-yildan buyon neft-gaz sohasida muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda. Shuningdek, 2024-yilda “SOCAR” va “Oʻzbekneftgaz” aksiyadorlik jamiyati tomonidan tashkil etilgan “Turán Energy APESCO” qoʻshma korxonasi “Azerikimya” ishlab chiqarish birlashmasida tayyorlangan yuqori bosimli polietilenni Oʻzbekistonga eksport qilmoqda.

“Yashil” energetika sohasidagi hamkorligimiz ham davom etmoqda. 2025-yilda Ozarbayjon, Qozogʻiston va Oʻzbekistonning tegishli energetika idoralari tomonidan Bokuda “Yasíl Dəhliz Birliyi” masʼuliyati cheklangan jamiyati taʼsis etildi. Mazkur qoʻshma korxona Ozarbayjon — Markaziy Osiyo “yashil” energiya yoʻlagi loyihasinı amalga oshirishni muvofiqlashtirish, qayta tiklanuvchi energiyani eksport qilish va uni Kaspiy

dengizi tubi orqali uzatish imkoniyatlarini rivojlantirish maqsadida tashkil etilgan.

Ikki mamlakat oʻrtasidagi tranzit tashuvlari hajmi ham oʻsmoqda. 2025-yilda bu koʻrsatkich 6,7 foizga oshib, 1,4 million tonnani tashkil etdi. Joriy yilning yanvar-iyun oylarida esa 12,2 foizlik oʻsish qayd etilib, tashuvlar hajmi 675 ming tonnaga yetdi.

Oʻzbekiston tomoni bilan amalga oshirilayotgan qator qoʻshma loyihalar iqtisodiy hamkorlikni yanada kengaytirish va mamlakatlarimiz uchun yangi rivojlanish imkoniyatlarini yaratishga muhim hissa qoʻshmoqda. Bu borada ozod etilgan Fuzuliyl tumanida 100 gektar maydonda “Doʻslik bogʻi” nomli anozor barpo etilishi, shuningdek, “Chevrolet” avtomobillari va “Isuzu” avtobuslarini ishlab chiqarish sohasidagi hamkorlikni alohida qayd etish mumkin. Maʼlumot uchun aytib oʻtsam, 2026-yil 13-iyul holatiga koʻra, jami 10 ming 720 ta “Chevrolet” avtomobili va 275 ta “Isuzu” avtobusi ishlab chiqarilgan.

Ayni paytda mamlakatimizda Oʻzbekiston investitsiyalari ishtirokidagi 130 dan ziyod tijorat tashkiloti roʻyxatdan oʻtgan boʻlib, ular sanoat, qishloq xoʻjaligi, qurilish, transport va xizmat koʻrsatish kabi iqtisodiyotning turli yoʻnalishlarida muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda. Oʻzbekiston kompaniyalarining Ozarbayjondagi faoliyati mamlakatlarimiz oʻrtasida shakllangan oʻzaro ishonch, qulay investitsiya muhiti va mustahkam iqtisodiy sheriklikning yaqqol ifodasidir.

Ozarbayjon va Oʻzbekistonning iqtisodiy imkoniyatlari bir-birini toʻldiradi va bu hamkorlikning yangi shakllarini yaratish uchun keng istiqbolli ochadi. Biz Ozarbayjon kompaniyalarining Oʻzbekistonda, Oʻzbekiston kompaniyalarining esa Ozarbayjonda yanada faol ishlashini, shuningdek, qoʻshma ishlab chiqarish va investitsiya loyihalari sonining koʻpayishini qoʻllab-quvvatlaymiz.

Ozarbayjon ham Oʻzbekistonda investitsiya loyihalarini amalga oshirmoqda. Bu borada “PASHA Holding” kompaniyasi tomonidan Toshkent shahrida “The Ritz-Carlton” brendi ostida qurilayotgan mehmonxona va turar joy majmuasi, shuningdek, Toshkent viloyatidagi “Sea Breeze Uzbekistan” yirik sayyohlik va turar joy majmuasi loyihalarini qayd etish mumkin.

— Sizningcha, madaniy diplomatiya Ozarbayjon — Oʻzbekiston davlatlararo aloqalarini mustahkamlashda qanday oʻrin tutadi?

— Ozarbayjon va Oʻzbekiston oʻrtasidagi madaniy-gumanitar hamkorlik mushtarak ildizlar, til va madaniyat yaqinligi, shuningdek, asrlar davomida shakllangan maʼnaviy qadriyatlarga tayanuvchi munosabatlarning ajralmas va muhim yoʻnalishlaridan biridir. Bu sohadagi hamkorlik xalqlarimiz oʻrtasidagi oʻzaro anglashuv, ishonch, doʻstlik va qardoshlik rishtalarini mustahkamlashga salmoqli hissa qoʻshib, gumanitar aloqalarni yangi mazmun bilan boyitmoqda.

Xalqlarimizning oʻzaro intilishi va davlatlarimizning birgalikdagi qoʻllab-quvvatlashi tufayli madaniy-gumanitar aloqalar soʻnggi yillarda muvaffaqiyatli rivojlanmoqda. Birgalikda oʻtkazilayotgan madaniyat kunlari, sanʼat festivallari, ilmiy anjumanlar, adabiyotlarni nashr etish va taʼlim dasturlari ikki mamlakat oʻrtasidagi madaniy-gumanitar kun tartibini mustahkamlashda alohida oʻrin tutadi.

2023 va 2025-yillarda Ozarbayjonda Oʻzbekiston madaniyati kunlari, 2024-yilda esa Oʻzbekistonda Ozarbayjon madaniyati kunlari oʻtkazildi. Shu yili Xiva shahrida “Shusha kunlari” ham boʻlib oʻtdi. Oʻzbekistonning nufuzli delegatsiyasi Bokuda Birinchi turkologlar qurultoyining va 100-yilligiga bagʻishlab oʻtkazilgan Turkiy dunyo haftaligida ishtirok etdi.

Qardosh mamlakatdagi eng qadimiy va nufuzli oliy taʼlim muassasalaridan biri — Oʻzbekiston Milliy pedagogika universitetining buyuk ozar shoiri va mutafakkiri Nizomiy Ganjaviy nomi bilan atalishidan faxrlanamiz.

Oʻtgan yili Boku markazida men va aziz birodarim Prezident Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonidan poydevori qoʻyilgan, 5 gektar maydonni egallaydigan “Oʻzbekiston” bogʻi qardoshligimizning yana bir ramziga aylanadi.

Haydar Aliyev jamgʻarmasi tomonidan amalga oshirilayotgan tashabbus va loyihalar ham ikki mamlakat oʻrtasidagi madaniy-gumanitar hamkorlikni kengaytirishda muhim ahamiyatga ega.

Taʼlim sohasidagi hamkorlik Ozarbayjon va Oʻzbekiston madaniy-gumanitar sherikligining yetakchi yoʻnalishlaridan biridir. 2025-2026-oʻquv yilida Ozarbayjonda Oʻzbekistonning 67 nafar fuqarosi, Oʻzbekistonda esa Ozarbayjonning 176 nafar fuqarosi tahsil oladi.

Oʻzbekiston tashabbusi bilan Fuzuliyl shahrida barpo etilgan va faoliyat yuritayotgan Mirzo Ulugʻbek nomidagi umumtaʼlim maktabi taʼlim sohasidagi hamkorlikning yorqin namunalaridan boʻlib, mamlakatlarimiz oʻrtasidagi qardoshlik munosabatlarining yana bir ifodasidir. Ushbu ezgu tashabbus, shuningdek, ozod etilgan hududlarimizdagi tiklash va bunyodkorlik ishlariga koʻrsatilayotgan koʻmak uchun butun Oʻzbekiston xalqiga va shaxsan Prezident Shavkat Mirziyoyevga samimiy minnatdorlik bildiramiz.

Media sohasidagi hamkorlik ham muhim natijalar bermoqda. 2024-yilning 23-25-sentabr kunlari Toshkentda I Oʻzbekiston — Ozarbayjon mediaforumi, 2025-yilning 29-sentabr kuni Bokuda II Ozarbayjon — Oʻzbekiston mediaforumi oʻtkazildi. 2023-yilda Fuzuliylga Ozarbayjon va Oʻzbekiston nodavlat notijorat tashkilotlari hamkorligining I forumi, 2024-yilda esa Toshkentda Oʻzbekiston va Ozarbayjon NNTlari hamkorligining II forumi boʻlib oʻtdi. Ushbu forumlarning amaliy natijasi sifatida 2026-yilda ikki qardosh mamlakat ilk bor NNTlar uchun qoʻshma grant tanlovini eʼlon qildi. Tanlov

yakunlariga koʻra, Ozarbayjonning gʻolib loyihalari Oʻzbekistonda, Oʻzbekistonning gʻolib loyihalari esa Ozarbayjonda amalga oshiriladi.

Oʻzbekistondan Ozarbayjonga sayyohlik safarlari soni ham ortib bormoqda. 2024-yilda mamlakatimizga Oʻzbekistonning 46 ming, 2025-yilda 62 ming, 2026-yil yanvar-avgust oylarida esa 44 ming nafar fuqarosi tashrif buyurdi.

Hududlararo hamkorlik muvaffaqiyatli rivojlanayotganini alohida taʼkidlash mumkin. Boku — Toshkent, Ismoiliy — Rishton, Shusha — Xiva, Lankaran — Buxoro, Sheki — Qoʻqon, Bilasuvar — Termiz, Mingchevir — Namangan, Fuzuliyl — Guliston, Guba — Jizzax va Beylagan — Shahrısabz shaharlari oʻrtasida birodarlik va sheriklik aloqalari oʻrnatilgan. Yaqin vaqtda Naxchivon va Urganch oʻrtasida ham birodarlik munosabatlarini yoʻlga qoʻyish rejalashtirilgan. Bugun Ozarbayjon va Oʻzbekiston shaharlarini birodarlashtirish tashabbuslari xalqlarimizni yanada yaqinlashtiradigan, mushtarak tarixiy, madaniy va maʼnaviy qadriyatlarini asrab-avaylaydigan, kelajak avlodlar oʻrtasidagi doʻstlik va oʻzaro ishonchni mustahkamlaydigan muhim hamkorlik platformalaridan biriga aylangan.

Shunday qilib, Ozarbayjon va Oʻzbekiston oʻrtasidagi madaniy-gumanitar hamkorlik nafaqat ikki tomonlama munosabatlarning muhim yoʻnalishi, balki xalqlarimizning mushtarak qadriyatlari, boy madaniy merosi va qardoshlik rishtalarini asrab, kelajakka olib oʻtadigan strategik gumanitar koʻprikdir.

— Hurmatli Prezident janoblari, Ozarbayjon va Oʻzbekiston xalqaro maydonlarda samarali hamkorlik qilmoqda. Turkiy davlatlar tashkiloti doirasidagi ushbu hamkorlikni qanday baholaysiz va Ozarbayjonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan munosabatlarini rivojlantirish istiqbollari haqida nima deya olasiz?

— Mamlakatlarimizning muhim masalalarni ham ikki tomonlama, ham koʻp tomonlama shakllarda hal etish borasidagi birgalikdagi faoliyati yuksak eʼtirofga loyiq. Ikki qardosh mamlakat — Ozarbayjon va Oʻzbekiston barcha masalalarda doimo bir-birini qoʻllab-quvvatlayotgani faxr tuygʻusini uygʻotadi.

Ozarbayjon va Oʻzbekistonning Turkiy davlatlar tashkiloti doirasidagi hamkorligi alohida ahamiyatga ega. Oʻtgan yili Gabalada TDT Davlat rahbarlari kengashining 12-sammiti boʻlib oʻtdi. Unda tashkilot doirasidagi hamkorlikning asosiy masalalari muhokama qilinib, TDTni mustahkamlash, turkiy dunyoda yanada jips birlikni taʼminlash, uning siyosiy, iqtisodiy va harbiy qudratini oshirish, shuningdek, global maydonda taʼsir va kuch markaziga aylantirishga qaratilgan deklaratsiyalar imzolandi.

Ozarbayjon va Oʻzbekiston TDTni nafaqat davlatlararo hamkorlik platformasi, balki mushtarak tariximiz, madaniyatimiz

va maʼnaviy qadriyatlarimizni kelajakka olib boruvchi muhim tuzilma sifatida qabul qiladi.

Ozarbayjon va Oʻzbekistonning TDT doirasida siyosiy muloqot, iqtisodiy aloqalar, transport-logistika imkoniyatlari, taʼlim, ilm-fan va madaniy-gumanitar hamkorlikni rivojlantirishga qoʻshayotgan hisssasi turkiy davlatlar oʻrtasidagi integratsiyani yanada chuqurlashtirishga xizmat qilmoqda.

Ayniqsa, transport-logistika sohasidagi hamkorligimiz katta istiqbollarga ega. Ozarbayjonning Janubiy Kavkazda, Oʻzbekistonning esa Markaziy Osiyoda joylashgani mamlakatlarimizni Sharq va Gʻarbi bogʻlovchi muhim strategik yoʻnalishlardagi tabiiy sheriklarga aylantiradi. Shu nuqtayi nazardan, “Xitoy — Qirgʻiziston — Oʻzbekiston” temir yoʻl loyihasining Oʻrta yoʻlak (Middle Corridor) va TRIPP bilan integratsiyalashuvi butun mintaq uchun yangi iqtisodiy va tranzit imkoniyatlarini yaratadi.

Ozarbayjon va Oʻzbekiston tomonidan mushtarak turkiy merosni asrash va targʻib etish boʻyicha amalga oshirilayotgan tashabbuslar buyuk maʼnaviy boylikni kelajak avlodlarga yetkazishda beqiyos ahamiyatga ega.

Mamlakatlarimiz boshqa turkiy tashkilotlar doirasidagi hamkorlikka ham katta ahamiyat beradi. Oʻzbekistonning 2025-yil may oyida Turkiy madaniyat va meros jamgʻarmasiga toʻla huquqli aʼzo sifatida qoʻshilishi muhim va quvonarli voqea boʻldi. Oʻzbekistonning boy tarixiy merosi, qadimiy davlatchilik anʼanalari va oʻziga xos madaniy qadriyatlarini inobatga olganda, uning mazkur jamgʻarmaga aʼzo boʻlishi turkiy dunyoning mushtarak merosini asrash va targʻib etish sohasidagi hamkorlik imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradi.

Shunday qilib, mamlakatlarimizning TDT va boshqa turkiy tashkilotlar doirasidagi faol hamkorligi turkiy dunyo integratsiyasini yanada kuchaytirish va xalqaro maydonda uning yagona pozitsiyasini mustahkamlashga xizmat qilishda davom etadi.

Ozarbayjonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan munosabatlariga kelsak, soʻnggi yillarda bu aloqalar ittifoqchilik, strategik sheriklik va oʻzaro manfaatli hamkorlik tamoyillari asosida jadal rivojlanganini taʼkidlash lozim. Tarixiy-madaniy yaqinlik va mushtarak maʼnaviy qadriyatlar kabi muhim omillar Ozarbayjon bilan Markaziy Osiyo davlatlari oʻrtasidagi mavjud aloqalarning mustahkam poydevorini tashkil etadi.

Ozarbayjon Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan siyosiy muloqotni kengaytirish, iqtisodiy aloqalarni chuqurlashtirish, transport-kommunikatsiya imkoniyatlarini oshirish, shuningdek, energetika va gumanitar sohalaridagi hamkorlikni rivojlantirishga alohida ahamiyat beradi. Shu nuqtayi nazardan, Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvlari mintaqaviy hamkorlikni ilgari surish, hamjihatlikdagi harakatlarni muvofiqlashtirish va qoʻshma tashabbuslarni

muhokama qilishda muhim ahamiyatga ega nufuzli platformalardan biridir.

Oʻtgan yil noyabroyida aynan Toshkentda, Oʻzbekiston raisligida oʻtkazilgan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining 7-Maslahat uchrashuvida Ozarbayjon Respublikasining mazkur formatda toʻla huquqli ishtirok etishi toʻgʻrisida qaror qabul qilindi. Ushbu jarayonda koʻrsatilgan qoʻllab-quvvatlash uchun Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentiga, shuningdek, Markaziy Osiyoning boshqa davlatlari rahbarlariga yana bir bor samimiy minnatdorlik bildiraman.

Ozarbayjonning ushbu jarayonga faol qoʻshilishi natijasida avval “C5” deb atalgan hamkorlik formati amalda “C6” formatiga aylandi, mintaqaviy muloqot va strategik sheriklik esa yangi mazmun va koʻlam kasb etdi.

Ozarbayjonning mazkur formatda toʻla huquqli ishtiroki mamlakatimiz Markaziy Osiyo bilan munosabatlarga berayotgan strategik ahamiyatni namoyon etadi. Maslahat uchrashuvlari doirasidagi muhokamalar mintaq mamlakatlari oʻrtasidagi oʻzaro ishonchni yanada mustahkamlash, hamkorlikning yangi yoʻnalishlarini belgilash va mintaqaviy rivojlanish uchun muhim tashabbuslarni amalga oshirish imkonini beradi.

Ozarbayjonning ushbu formatdagi ishtiroki mamlakatimizning mintaqalararo hamkorlikni mustahkamlashga qoʻshayotgan hissasini ham koʻrsatadi. Mazkur platforma doirasida yaratilgan muloqot va hamkorlik mexanizmlari nafaqat davlatlararo munosabatlarni rivojlantirish, balki butun Yevroosiyo makonida tinchlik, barqarorlik va izchil taraqqiyotni taʼminlashga xizmat qiladi.

Shunday qilib, Ozarbayjon va Markaziy Osiyo mamlakatlari oʻrtasida shakllanayotgan koʻp qirrali hamkorlik oʻzaro hurmat, ishonch va mushtarak manfaatlariga asoslangan strategik sheriklik namunasidir.

Ozarbayjon va Oʻzbekiston aʼzo yoki ishtirokchi boʻlgan deyarli barcha xalqaro tashkilot va koʻp tomonlama platformalar, xususan, BMT, Islom hamkorlik tashkiloti, Turkiy davlatlar tashkiloti, Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti, Osiyoda hamkorlik va ishonch choralari boʻyicha kengash hamda Qoʻshilmaslik harakati doirasida ham samarali hamkorlik qilmoqda.

— Hurmatli Prezident janoblari, qiziqarli va mazmunli intervyu uchun Sizga minnatdorlik bildiramiz. Oʻzbekistonga davlat tashrifingiz arafasida qardosh xalqqa qanday tilaklar bildirgan boʻlardingiz?

— Ushbu ajoyib imkoniyatdan foydalanib, qardosh Oʻzbekiston xalqini mamlakatingiz davlat mustaqilligining yaqinlashib kelayotgan 35 yilligi bilan samimiy tabriklayman hamda chuqur hurmatimni izhor etib, tinchlik, farovonlik, ravnaq va yangi yutuqlar tilayman.

OʻZA



Aziza AMINOVA, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati

► Boshlanishi 1-betda

Masalan, qishloq xoʻjaligini olaylik. Hozir bu sohada ishbilarmonlar soni yuqori va ular agrotadbirkor sifatida faoliyat yuritaypti. Natijada mamlakatimiz qishloq xoʻjaligi tubdan transformatsiya qilinib, meva-sabzavotlar, paxta va gʻallani qayta ishlashga ixtisoslashtirilgan agroklasterlar faoliyati yoʻlga qoʻyildi. Agrar sohada qorakoʻlchilik,

BIZNES RIVOJLANISHI UCHUN YAGONA EKOTIZIM YARATILADI

pillachilik, baliqchilik, parrandachilik, asalarichilik sohaları rivoj topdi.

Mazkur jarayonda, ayniqsa, davlatimiz rahbarining tadbirkorlarga ishonchi, ishbilarmonlar bilan doimiy uchrashuvi, har yili avgustda oʻtkazilgan anʼanaga aylangan ochiq muloqotda ilgari surilayotgan taklif va tashabbuslar alohida oʻringa

ega. Ishbilarmonlar ushbu uchrashuvda gʻoya va takliflarini ilgari surar ekan, soha rivojida bevosita ishtirokchiga aylanmoqda. Qolaversa, bu gʻoyalari hayotga tatbiq etilib, iqtisodiyot tarmoqlari, odamlar turmush tarziga kirib borapti.

Joriy yil 18-avgust kuni Prezidentimiz Xiva shahrida tadbirkorlar bilan boʻlib



oʻtgan oltinchi ochiq muloqotda yurtimiz ishbilarmonlarini mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida eʼtirof etdi. Soʻnggi besh yilda xususiy korxonalar tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya hajmi uch baravar koʻpayib, 363 trillion soʻmga yetgani, sanoat aylanmasi 100 million dollardan oshadigan tumanlar soni 66 tadan 116 taga koʻpayganiga alohida eʼtibor qaratdi. Ahamiyatlisi, 550 dan ziyod tadbirkor oʻz faoliyatini mahalliy hududlarda boshlab, hozir mamlakat boʻylab oʻnlab filiallarga ega. Ishbilarmonlarning 300 dan ortigʻi esa milliy brend yaratgan.

Xorazm viloyatida tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun mutlaqo yangi imkoniyatlar yaratilgan boʻlib, 4 milliard dollar miqdorida xorijiy investitsiya jalb qilingan hamda 10 mingga yangi ishlab chiqarish obyekti ishga tushirilgan. Hozir kichik biznes viloyat iqtisodiyotining 72 foizini tashkil qilyapti. Eksportdagi ulushi esa 81 foizga yetgan. Bu mamlakatimiz boʻyicha eng yuqori koʻrsatkichlardan. Turizm viloyatda tadbirkorlikning ustuvor tarmoqlaridan. Joriy yilda Xorazmga kelgan xorijlik sayyohlar soni 3 millionga yetishi kutilmoqda.



Ochiq muloqot qizgʻin ruhda oʻtganiga barchamiz guvoh boʻldik. Unda tadbirkorlik sohasini yangi bosqichga olib chiqish, yanada qulay muhit yaratish va ishbilarmonlarning davlat organlari bilan munosabatlarini soddalashtirishga alohida eʼtibor qaratildi. Tadbirkorlar duch kelayotgan ortiqcha byurokratik toʻsiqlarni kamaytirish, ruxsat berish jarayonini soddalashtirish va davlat xizmatlarini raqamlashtirish boʻyicha yangi choralar belgilangani, 30 dan ortiq faoliyat turi boʻyicha litsenziya va ruxsatnomalar talabini bekor qilish rejalashtirilgani maʼlum qilindi. Shuningdek, xususi

kompaniyalarning rivojlanish bosqichiga koʻra yagona ekotizim yaratilishi, “Biznes start”, “Biznes lift”, “Biznes yuksalish” dasturlari ishlab chiqilishi, kreditlar boʻyicha kontr-kafolat mexanizmlari joriy etilishi taʼkidlandi.

Umuman, ilgari surilgan tashabbuslar, belgilangan imtiyozlar koʻlami juda keng. Har biri yurtimiz tadbirkorlari faoliyatining yanada rivojlanishi, erkin va samarali faoliyat yuritishi, yangi gʻoya hamda loyihalarni dadil amalga oshirishi uchun xizmat qiladi. Bundan biznes egalari toʻgʻri va unumli foydalanish kerak.

MILLATNI UYG‘OTGAN LIDER

AQSHda tashkil etilgan “MILLAT SHAHKATI”
kitobi taqdimoti taassurotlari

Husan ERMATOV,
O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan
jurnalist, senator

Boshlanishi 1-betda

AQSH kongressi va BMT tarixida o‘ziga xos yangilik bo‘lgan, qolaversa, dunyo hamjamiyatining yangi O‘zbekiston islohotlariga cho‘ng qiziqishi ramzi sifatida bu ikki taqdimotda ishtirok etgan, fikr bildirgan jamiki xorijlik ekspertlarning Shavkat Mirziyoyev siyosatiga xayrixohligi, O‘zbekistonning porloq istiqboliga ishonchidan shu yurtning bir farzandi o‘laroq boshimiz ko‘kka yetgan, qalbimiz g‘ururga to‘lgandi.

Ana shu taassurotlar hali xayolni tark etmay turib, bunday taklif kelib tushgani qalbmizdagi hayajonni yanada qo‘r oldirdi. Eng muhimi, bu gal yangi kitob taqdimotining vatandoshlar, o‘z taqdirini okeanorti o‘lkasi bilan bog‘lagan, bugun turli xizmat vazifalarida mehnat qilayotgan oddiy yurtodoshlarimiz, “O‘zbekiston” so‘zini yuragida mehr-la olib yurgan vatandoshlar ishtirokida bo‘layotgani edi.

Taqdimot tashabbuskori ham shu odamlar bilan bevosita ishlamayotgan AQSHdagi “Vatan Global Alliance” jamoat tashkiloti. Avvalo, “Vatan Global Alliance” jamoat tashkiloti haqida ikki og‘iz to‘xtalamiz.

“Vatan Global Alliance” jamoat tashkiloti idorasi AQSHning Filadelfiya shahrida joylashgan. U AQSH va Kanadada istiqomat qilayotgan o‘zbekistonliklarni birlashtirish, yoshlar o‘rtasida milliy an‘ana va qadriyatlarini targ‘ib qilishni ko‘zlab ko‘rib faoliyat yuritadi. Shu maqsadda turli tadbirlar tashkil etadi, milliy bayramlarimizni nishonlaydi.

Tashkilotning ayni shu shaharda faoliyat yuritishida ham o‘ziga xos asos bor, nazarimda. “Birodarlik shahri” ma‘nosini beradigan Filadelfiyada AQSH demokratiyasi tamoyillariga asos solingan. AQSH Mustaqilligi deklaratsiyasi, konstitutsiya shu kentda imzolangan. O‘sha tarixiy hujjatga imzo chekilgan “Ozodlik ko‘ng‘irog‘i” deb nom olgan binodan sayyohlarning qadami, mana ikki yarim asrki, uzilmaydi.

Pensilvaniyadagi eng yirik shahar hisoblangan Filadelfiya aholisi 1,5 milliondan oshiq bo‘lsa, bu nufusning 40 mingdan ko‘prog‘ini o‘zbekistonliklar tashkil etadi.

Muhitni anglash

Bugun AQSHda istiqomat qilayotgan yarim milliondan ziyod vatandoshimizning taqdiri turlicha. Ular bu o‘lkaga dam olish uchun yul ko‘pligidan sayohatga borgan emas. Biz buni to‘g‘ri anglaymiz. Qolaversa, aslida ham “muhojirlar vatani” desak, mubolag‘a bo‘lmaydigan bir diyorda har bir millatdan vakil bor.

Shaharning o‘tmishida italiyaliklardan tortib, angliyaliklar-u yaponiyaliklarning ham o‘rni bor. Bir so‘z bilan aytganda,



Taqdimot

bugungi AQSHni ham dunyo xalqlari qurgan, bunyod etgan, shu darajaga olib chiqqan. “Ozodlik monumenti” va unga yondosh muzeyda bo‘lgach, bu fikrlarimiz yana ham oydinlashdi.

Bugun o‘zbek vatandoshlari AQSHda o‘z o‘mini topib ulgurgan diasporalar qatoridan muqim joy ola boshlagan. E‘tiborli jihati, Filadelfiyaga yaqin ikki-uch yilda qator viloyatlarimiz hokimlari o‘z delegatsiyalari bilan kelishga ulgurdi. Bu safarlarning maqsadi faqat investitsiya topish emas, to‘laonli ishonch bilan aytish mumkin, garchi minglab chaqirim masofa ajratib turgan bo‘lsa-da, bizning ham Amerika bozoriga yuboradigan, taqdim qiladigan, boshqalarga nisbatan sifatliroq, arzonroq, ma‘qulroq mahsulotlarimiz borligida. Masalan, Samarqand viloyati hokimi Adiz Boboyev rahbarligidagi delegatsiyaning Pensilvaniyadagi tadbirkorlar bilan samarali muloqoti va uchrashuvlari tahsinga loyiq.

“Vatan Global Alliance” tashkiloti rahbari Ozod Soliyevning ta‘kidlashicha, muzokaralar, tahlillar natijasida dastlabki hisob-kitob va takliflar viloyatga 1 milliard dollardan ko‘proq sarmoya kiritishni nazarda tutayotgan bo‘lsa, jami ishlamayotgan, puxta ko‘rib chiqish va hisoblash jarayoni borayotgan sarmoyalar miqdori 4 milliard dollardan ortishi mumkin. Bu birgina viloyat haqida borayotgan gap. Qolaversa, hali jarayonlar endigina boshlandi. Mazkur takliflar paketida Filadelfiyadagi o‘zbekistonlik tadbirkorlar ulushi ham ortmoqda.

Birodarlik shahri ko‘chalarida o‘zbekistonlik ishbilarmonlarning savdo nuqtalari, restoran va marketalari soni ham kun sayin ko‘paymoqda. Jumladan, “Asr” supermarketini oling. U shahardagi gavjum va tovar aylanmasi eng yuqori savdo markazlaridan. U yerda o‘zingizni AQSHda emas, balki O‘zbekistonning biror shahrida yurgandek his qilasiz. Chunki mahsulotlarning 90 foizdan ko‘prog‘i mamlakatimizniki, yozuvi o‘zbekcha, sifati tabiiy. So‘zlashuvdan tortib, ichki muhit ham ona yurtimizni eslatib turadi. Munosabatlar o‘zbekona. Sotuvchilarning muomalasidan ko‘ngil yayraydi.

Filadelfiyaning Benjamin Franklin nomidagi markaziy ko‘chasida ko‘plab mamlakatlar bayrog‘i hilpirab turibdi. O‘zbekiston mustaqilligining 35 yilligi munosabati bilan bo‘lib o‘tadigan bayram tadbirlari dasturidan mazkur xiyobonga O‘zbekiston bayrog‘i ham o‘rnatilishi kutilmoqda ekan.

“Samarqand”da uchrashuv

Taqdimot oldidan olingan bu taassurotlar bizni yanada ilhomlantirdi. Safarimiz kitob taqdimoti bilan bog‘liq edi. Mavzudan bir oz uzoqlashib, AQSH va u yurtda yashayotgan vatandoshlar haqidagi ma‘lumotlarga o‘tib ketganimiz o‘quvchiga og‘ir botmasin. Zotan, bu ham mavzuga bog‘liq. Chunki bu tashabbus O‘zbekistonni sog‘ingan, ona Vatanidagi taraqqiyotdan, o‘zgarishlardan ko‘nglida cheksiz faxr tuygan odamlardan chiqqan edi.

“MILLAT SHAHKATI” kitobining ilk taqdimoti “Samarqand koshonasi” deb nomlangan maskanda bo‘lib o‘tdi. O‘zbek milliy taomlari tayyorlanadigan restoran, to‘y va marosimlar, qolaversa, tadbirlar o‘tkazishga mo‘ljallangan zallardan iborat ushbu maskan 15-avgust kuni vatandoshlarimiz bilan gavjum bo‘ldi.

“Amerikalik o‘quvchilar “Yangi O‘zbekiston: Shavkat Mirziyoyev yo‘li” deb nomlangan birinchi kitobda millatimiz Lideri rahbarligida bunyod etilayotgan yangi O‘zbekiston mohiyati bilan tanishgan bo‘lsa, “MILLAT SHAHKATI” undan-da muhim boshqa jihatni — millat qayg‘usi, so‘nggi ikki-uch yildagi tarixiy inshootlar — Islom sivilizatsiyasi markazi va Imom Buxoriy majmualari orqali yangi O‘zbekiston aslida qanday poydevor ustida bunyod etilayotgani haqida mufassal ma‘lumot olishmoqda.



Tadbirda AQSHning Vashington, Nyu-York va boshqa shaharlaridan ham o‘zbekistonliklar keldi.

O‘zbekistonning AQSHdagi favqulodda va muxtor elchisi Furqat Siddiqov ikki mamlakat Prezidentlarining muntazamlik kasb etayotgan muloqotlari, uchrashuvlari, yuritayotgan ko‘p vektorli siyosati haqida atroflicha so‘zlab berdi. Xususan, davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev va AQSH Prezidenti Donald Tramp o‘rtasida yaqinda bo‘lib o‘tgan telefon muloqotiga to‘xtalib, mazkur suhbatlarning ikki mamlakat munosabatlarida tutgan amaliy o‘rniga alohida urg‘u berdi. Elchi janoblari AQSHning yana bir qator shaharlarida konsulliklar ochilishi rejalashtirilayotgani, o‘zaro investitsiyalar hajmi jadal oshayotganini ta‘kidladi.

Mazkur kitob xorijda yashayotgan vatandoshlarimizga ona yurtimizdagi jarayonlar, Prezidentimiz rahbarligidagi xalqparvar siyosatning mazmun-mohiyatini yetkazishda o‘ta muhim ahamiyatga egaligini qayd etdi.

Elchining nutqidan ma‘lum bo‘ldiki, so‘nggi yillarda AQSHdagi vatandoshlarning O‘zbekiston hayotiga qiziqishi mazmunan o‘zgargan. Eng muhimi, bu qiziqish ularning Vatandagi ezuq evrilishlar jarayonida ishtirokchi o‘laroq qatnashish istagi, daxldorlik tuyg‘usi jo‘sh ura boshlagani bilan qimmatli.

Furqat Siddiqov so‘nggi o‘n yilda O‘zbekiston dunyo hamjamiyati ko‘z o‘ngida butunlay yangi qiyofada namoyon bo‘la olganini ta‘kidladi. BMT kun tartibiga o‘ta dolzarb masalalarni qo‘ya oladigan, dunyo iqlimini belgilash salohiyatiga ega aktor davlatlar bilan o‘zaro manfaatli muloqotlarga kirishayotgan, tashqi olam uchun Markaziy Osiyoni yaxlit siyosiy subyekt sifatida shakllantirgan Prezidentimizga nisbatan hurmat va ehtirom barchamizni xushnud etayotgani ham bor gap.

Ikkinchi missiya

Bu sarlavhani qo‘yishda bir nechta ma‘noni nazarda tutdik. “MILLAT SHAHKATI” taniqli siyosatshunos Qudratilla Rafiqovning AQSHdagi o‘qirmanga taqdim etilayotgan ikkinchi kitobi.

Amerikalik o‘quvchilar “Yangi O‘zbekiston: Shavkat Mirziyoyev yo‘li” deb nomlangan birinchi kitobda millatimiz Lideri rahbarligida bunyod etilayotgan yangi O‘zbekiston mohiyati bilan tanishgan bo‘lsa, “MILLAT SHAHKATI” undan-da muhim boshqa jihatni — millat qayg‘usi, so‘nggi ikki-uch yildagi tarixiy inshootlar — Islom sivilizatsiyasi markazi va Imom Buxoriy majmualari orqali yangi O‘zbekiston aslida qanday poydevor ustida bunyod etilayotgani haqida mufassal ma‘lumot olishmoqda.

— Men kitobni ikki marta o‘qib chiqdim, — deydi “Vatan Global Alliance” tashkiloti bo‘lim boshlig‘i Sa‘dullo Ahmedov, — Shunday xulosaga keldimki, bu asar har bir o‘zbekistonlikning uyida bo‘lishi kerak.

— Agar chuqurroq razm solinsa, bu kitob aynan AQSHdagi o‘zbek vatandoshining o‘z yurti haqidagi tasavvurlari, shu paytgacha bo‘lgan gohida qo‘rquv va alam, gohida o‘kinch va iztiroblar o‘rniga butunlay boshqa bir tuyg‘uni olib kirishi bilan qimmatli, — dedi Nyu-York shahridagi “Royal-roll” majmuasida tashkil etilgan ikkinchi taqdimotda Ozod Soliyev. — Biz kechagi, Amerikaga kirib kalgandagi orzu va niyatlarimizni tarixda qoldirib, ertangi butunlay boshqa bir hayot, yangi orzu va niyatlarni ko‘nglimizga jo qilyapmiz. Axir qayerda bo‘lmaylik, bizni bir ulug‘ nuqta — O‘zbekiston, Vatanimiz birlashtirib turadi.

U o‘z chiqishida “Biz endi ikkinchi missiyamizni amalga oshirish yo‘lidamiz”, — deya alohida qayd etdi. — “Ushbu missiya cho‘ntak, qishloqda o‘tkaziladigan to‘y-tomoshga qayg‘usidan butunlay farqli. Yaqin besh-olti yilda AQSH kongressi, BMT va boshqa xalqaro tashkilotlarda, AQSH aql markazlarida bizning farzandlarimiz, albatta, bo‘ladi”.

Shu o‘rinda Ozod Soliyev haqida ham ozgina ma‘lumot berib o‘tishimiz joiz. U jurnalistikada kreativ tafakkur, menejmentni chuqur anglagan ijodkor va muharrir sifatida hurmat qozongan. Inson qalbiga yo‘l topish, uni yorug‘ niyatlarga yetaklash, og‘ir va tashvishli holatlarni yengib chiqish borasidagi falsafiy fikrlash salohiyati uning rahbarligidagi “Vatan Global Alliance” tashkiloti faoliyatida ham yaqqol ko‘rinmoqda. Darvoqe, gap isboti bilan degandek, Ozodjonning to‘ng‘ich farzandi tibbiyot sohasida doktorlik rutbasiga yetishdi. Gap shundaki, bu oilaning ertangi orzu-istagi endi yangi pog‘onaga chiqqan. Bu nafaqat Ozod Soliyevga, balki bugun o‘z o‘mini tobora egallayotgan minglab o‘zbek vatandoshlariga xos evrilish.

AQSHdagi vatandoshlarimiz bilan xayrlashar ekanmiz, “Bu missiya sizga muborak bo‘lsin!” dedik...

...Uchog‘imiz cheksizdek tuyulgan ummon uzra suzib boradi. Osmon ko‘m-ko‘k, yer ko‘m-ko‘k... Bugungi kunlar, kecha va ertani o‘ylab ketasiz. Bunga taassurotlar ham qo‘shiladi. “MILLAT SHAHKATI” kitobini o‘qish asnosida bildirilgan yangi O‘zbekistondagi hayotbaxsh islohotlar, Prezidentimizning siyosati haqidagi fikrlar xayolda jonlanaveradi. Shunda tafakkurda bunday xulosa paydo bo‘ladi: **Shavkat Mirziyoyev — millatni uyg‘otgan Lider! Uyg‘oq millatlar esa mudom shavkatli bo‘lib kelgan.**

Ha, Prezidentimiz boshlab borayotgan yangi O‘zbekistonimiz yo‘lida zabt etilayotgan dovonlar, xalqimiz ko‘zidagi ishonch va yana xorijdagi vatandoshlar, siyosatchilar, ekspertlar bildirayotgan fikrlar shunday deyishimizga to‘la asos bo‘ladi.

Toshkent — Nyu-York — Pensilvaniya —
Nyu-York — Toshkent



AMERIKALIKLAR E‘TIROFI

Maylz XANSEN,
“Sterling Foundation” fondi bosh
direktori:

— “MILLAT SHAHKATI” kitobida taraqqiyotni faqat yangi infratuzilma, mustahkam institutlar yoki iqtisodiy ko‘rsatkichlar bilan o‘lchab bo‘lmazligi ta‘kidlanadi. Taraqqiyotning eng muhim mezonini — islohotlar inson qadr-qimmatini yuksaltirishi, imkoniyatlarni kengaytirishi hamda odamlarda o‘z mamlakati va kelajagiga ishonchni mustahkamlashidir.

Mazkur g‘oya O‘zbekiston uchun, ayniqsa, katta ahamiyatga ega. Bugungi O‘zbekiston hududi bir vaqlar Buyuk ipak yo‘lining markazida joylashgan bo‘lib, savdo, ta‘lim, ilm-fan va madaniy almashuvning yirik markazlaridan biri edi. Ushbu sivilizatsiya dunyoga buyuk olim va tabib Abu Ali ibn Sino, atoqli sho‘ir va davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Bobur, shuningdek, Samarqandni jahon astronomiya markazlaridan biriga aylantirgan Mirzo Ulug‘bek kabi buyuk siymolarni yetishtirib berdi.

Asarda Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligi O‘zbekistonni boy tarixiy merosi bilan qayta bog‘lash, ayni paytda mamlakatni dunyoga keng ochish va yanada porloq kelajak sari yetaklash jarayoni sifatida aks ettirilgan.

Ichki islohotlar, butun Markaziy Osiyo bo‘ylab hamkorlikning yangilanishi va mustahkamlanishi, shuningdek, xalqaro aloqalarning kengayishi natijasida O‘zbekiston yana sivilizatsiyalar chorrahasiga aylanmoqda.

Yelena SON,
O‘zbekiston — Amerika savdo-sanoat
palatasi ijrochi direktori:



— O‘zbekiston xalqini ushbu kitob bilan tabriklayman. Undan o‘rin olgan maqolalarning so‘nggi yillarda O‘zbekiston ommaviy axborot vositalari diqqati markazida bo‘lib

Jeyms DURSO,
amerikalik yetakchi ekspert,
“The Hill” gazetasi muxbiri:

— 2016-yildan buyon o‘tgan o‘n yillik O‘zbekistonning zamonaviy tarixidagi eng muhim davrlardan. Bu vaqtda O‘zbekiston o‘z barqarorligini saqlab qolishga muvaffaq bo‘lgan va hali to‘liq ro‘yobga chiqmagan salmoqli salohiyatga ega davlat sifatida maydonga chiqdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning islohotlar va o‘zgarishlar dasturi iqtisodiyot salohiyati hamda o‘zbek xalqining bunyodkorlik g‘ayratini yuzaga chiqardi, qo‘shni respublikalar bilan munosabatlarning sezilarli yaxshilanishiga ko‘maklashdi va boy tarixiy merosga hurmatni saqlagan holda mamlakatni kelajak sari yo‘naltirdi. Bugun bu meros ehtiyoqkorlik bilan asrab-avaylanmoqda

Bu qarash men shaxsan kuzatayotgan jarayonlarga ham to‘la mos keladi. Bugun O‘zbekistonning AQSHdagi kompaniyalar, universitetlar va turli tashkilotlar bilan hamkorligi tobora kengayib bormoqda. Bu jarayon mening ona shtatim — Yutada ham yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

Aynan shu jihat kitobning asosiy g‘oyasini nihoyatda ta‘sirchan qiladi. Unda shunchaki modernizatsiya haqida emas, balki milliy tiklanish — tarixiy xotirani qayta tiklash, mustaqil tafakkurni rivojlantirish va O‘zbekiston kelajagiga ishonchni mustahkamlash haqida so‘z yuritilgan.

Ishonchim komilki, agar sizda ushbu kitobni o‘qish imkoniyati bo‘lsa, undan katta taassurot olasiz, O‘zbekiston tarixi hamda bugungi taraqqiyoti haqida yanada ko‘p ma‘lumotga ega bo‘lasiz. Eng muhimi, bu kitob O‘zbekiston kelgusida uddalashi mumkin bo‘lgan ulkan va hayratlanarli ishlar ko‘lamini yanada chuqur anglash imkonini beradi.

kelayotganini e‘tiborga molik deb bilaman. Bu ko‘p jihatdan Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan va uning rahnamoligidagi islohotlar hamda tashabbuslar bilan bog‘liq.

Jahon miqyosida yetakchilik qilish oson emas. Prezident Shavkat Mirziyoyev mamlakatni safarbar eta oladigan, mintaqani birlashtiradigan va AQSH ishbilarmon doiralarning O‘zbekiston bozoriga qiziqishini oshiradigan ana shunday yetakchidir.

Shuningdek, so‘nggi o‘n yilda Amerika — O‘zbekiston ishbilarmonlik munosabatlarini qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish yo‘lidagi barcha ishlar uchun Prezident Shavkat Mirziyoyevga chuqur minnatdorlik bildiramiz.

Shu bilan birga, AQSHda O‘zbekistonning tanilishiga ko‘maklashishda muhim rol o‘ynaydigan, e‘tirof etilgan nufuzli kuch bo‘lgan o‘zbek diasporasiga kitobni taqdim etgani uchun muallifdan alohida minnatdor bo‘lishimiz kerak.



va jumladan, Islom sivilizatsiyasi markazi hamda Imom Buxoriy yodgorlik majmuasida namoyish etilmoqda.

“MILLAT SHAHKATI” kitobi bu borada o‘z o‘quvchisiga ko‘p narsani so‘zlaydi, saboqlar beradi.

Prezident qarorlari — hayotda va nazoratda

Nurali ABDULLAYEV,
Qishloq xo‘jaligi vazirligi
huzuridagi Agrosanoatni
rivojlantirish agentligi
direktori

IJRO INTIZOMI – TARAQQIYOT
VA NATIJADORLIK MEZONI

Boshlanishi 1-betda

Prezidentimizning 2021-yil 10-fevraldagi “Qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etishda davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi va 2025-yil 25-iyuldagi “Davlat organlari va tashkilotlarda ijro intizomini yanada mustahkamlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, 2021-yil 31-maydagi “Ijro.gov.uz” ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko‘rsatishini ta‘minlashga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori shular jumlasidan.

Bundan tashqari, shu yil 14-avgustda “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi to‘g‘risida”gi konstitutsiya-viy qonun qabul qilindi. Shuningdek, bu borada Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 30-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari ijrosini nazorat qilishning yangi mexanizmlarini joriy etish to‘g‘risida”gi qarori ham qabul qilingan.

Mazkur hujjatlar davlat organlari va tashkilotlari rahbarlari zimmasiga yuklatilgan vazifalarning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini ta‘minlashda huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Ijro intizomi davlat boshqaruvining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, mamlakat taraqqiyoti, iqtisodiy o‘sish va aholi farovonligini ta‘minlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Qolaversa, u har qanday davlat organlari va tashkilotlarning faoliyati natijadorligini ta‘minlovchi eng muhim hamda asosiy ko‘rsatkichlardan. Shu bois, sohaga oid barcha hujjatlarning ijrosini ta‘minlash nafaqat Agrosanoatni rivojlantirish agentligi rahbariyati, hatto eng quyi bo‘g‘ingacha bo‘lgan hamma xodimning burchiga aylangan.

Agentlik tomonidan bu borada “Ijro.gov.uz” ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimiga kiritilgan qonunchilik

hujjatlari va topshiriqlarning bajarilishi bo‘yicha Vazirlar Mahkamasi, Adliya vazirligi va Hisob palatasi bilan “texnologik zanjir” asosida doimiy hamkorlikda ish yuritilmoqda.

2026-yilning birinchi yarim yilligida agentlikka O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlangan 131 ta hujjat “Ijro.gov.uz” tizimi orqali kelib tushgan, 680 ta topshiriq agentlikka yo‘naltirilgan. Shundan 548 ta topshiriq ijrosi to‘liq ta‘minlangan. Qolgan 132 ta topshiriq ijrosini ta‘minlash chora-tadbirlari ko‘rilmoqda. Bundan tashqari, Prezident Administratsiyasi rahbarining 24 ta, Vazirlar Mahkamasining 67 ta topshirig‘i ijrosi to‘liq ta‘minlandi.

Yangi O‘zbekistondagi keng ko‘lamli islohotlarning muvaffaqiyati, eng avvalo, qabul qilinayotgan qarorlar va belgilangan vazifalarning o‘z vaqtida hamda sifatli ijro etilishiga bog‘liq. Shu bois, ijro intizomini mustahkamlash davlat boshqaruvining eng muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida e‘tirof etilmoqda. Zero, har qanday tashabbus, dastur yoki loyiha o‘zining amaliy natijasini aynan puxta tashkil etilgan ijro orqali namoyon etadi. Bu esa agentlik direktori bilan bir qatorda uning o‘rinbosarlari zimmasiga ham katta mas‘uliyat yuklaydi.

KPI ko‘rsatkichlari baholansagina xodimlar mas‘uliyatni his qiladi. Shu bois, 2025-2026-yillar uchun agentlik direktori va o‘rinbosarlarining faoliyatini baholovchi maqsadli ko‘rsatkichlar Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlari bilan tasdiqlangan. Ularda belgilab berilgan agentlik direktori va o‘rinbosarlarning faoliyatini baholovchi maqsadli ko‘rsatkichlar 2025-yil hamda 2026-yil birinchi yarim yilligida 100 foizlik natija bilan bajarildi. KPI ko‘rsatkichlarini o‘z vaqtida va sifatli bajarish maqsadida har chorak yakuni bilan agentlikning kengaytirilgan yig‘ilishida tanqidiy muhokama qilib borilmoqda.

Bundan tashqari, agentlik markaziy apparati boshqarma va bo‘limlar xodimlarining faoliyati samaradorligini baholash tartibi va maqsadli vazifalarga erishishini baholashning asosiy mezonlari (KPI ko‘rsatkichlari) tasdiqlangan.

Bularning barchasi agentlik tizimida ijro intizomini ta‘minlash, qolaversa, Prezidentimiz, Prezident Administratsiyasi hamda Vazirlar Mahkamasi topshiriqlari bilan yuklatilgan vazifalar, funksiyalar va prognoz (indikator) ko‘rsatkichlari ijrosini belgilangan muddatlarda, sifatli va to‘laqonli

ta‘minlash orqali islohotlar natijadorligini oshirish va samaradorlikni mustahkamlashga asos bo‘lmoqda.

Agentlik zimmasiga yuklatilgan vazifalar qatorida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish, qayta ishlash va eksport qilish jarayonlarini qo‘llab-quvvatlash, investitsiyalarni jalb etish, innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish hamda soha infratuzilmasini rivojlantirish kabi muhim masalalar mavjud. Mazkur vazifalarning samarali bajarilishi esa, avvalo, ijro intizomining yuqori darajada yo‘lga qo‘yilganiga bog‘liq.

Tashkilotimiz tizimida hujjatlar va topshiriqlar ijrosini nazorat qilish, ularning bajarilish muddatlariga qat‘iy rioya etish

ming gektari fermer xo‘jaliklari hamda 92,3 ming gektari aholi va dehqon xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri keladi. 2025-yilda ushbu bog‘larda 3,4 million tonna meva mahsuloti yetishtirildi. Bundan tashqari, 207,1 ming gektar uzumzorda o‘tgan yili 2 million tonna uzum mahsuloti yetkazib berildi.

Prezidentimizning 2024-yil 30-sentabrdagi “Respublikada agrosanoat sohasiga yangi bozor mexanizmlarini joriy etish hamda sanoatlashgan bog‘ va tokzorlarni barpo qilishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonida Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlarda 2024-2025-yillarda iqtisodiy samarasiz hamda eskirgan bog‘ va tokzorlar o‘rnida jami 43,2 ming gektar yangidan



hamda ijro natijalarini muntazam tahlil qilib borish bo‘yicha tizimli ishlar qilinmoqda. Har bir topshiriqning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishi mas‘ul xodimlarning shaxsiy javobgarligi asosida tashkil etilmoqda. Bu esa ish samaradorligini oshirish, byurokratik to‘siqlarni kamaytirish va natijadorlikni ta‘minlashga xizmat qilmoqda.

Ayniqsa, hududlardagi investitsiya loyihalari, intensiv bog‘ va tokzorlar tashkil etish, zamonaviy issiqxonalarni barpo etish, eksportbop mahsulotlar yetishtirish bo‘yicha vazifalarning ijrosi ustidan doimiy monitoring olib borilishi alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki har bir loyiha ortida yangi ish o‘rinlari, iqtisodiy o‘sish va aholi farovonligini oshirish kabi maqsadlar mujassam.

Respublikamizda jami 365,5 ming gektar mevazor mavjud. Shundan 273,2

sanoatlashgan intensiv mevali bog‘ va tokzor barpo etish vazifasi belgilangan. Shu asosda respublikada jami 44,2 ming gektar sanoatlashgan intensiv mevali bog‘ va tokzor barpo etildi.

Aholi bandligini ta‘minlash bo‘yicha 15 ming kishi doimiy va 63 ming fuqaro mavsumiy ish bilan ta‘minlandi hamda 331,5 million dollarlik investitsiya kiritildi.

Agentlik tomonidan 2026-yil hududlarda 30,5 ming gektar mevali bog‘ va tokzorlar barpo etish, natijada 681 ming tonna hosil olish, 42 mingga mavsumiy hamda 6,1 mingga doimiy ish o‘mi ochish reja qilingan.

O‘zbekiston va xorijiy davlatlar o‘rtasidagi qishloq xo‘jaligi hamkorligini mustahkamlash, zamonaviy bog‘dorchilik texnologiyalarini joriy etish hamda eksportbop meva mahsulotlari yetishtirish maqsadida Qirg‘iziston, Tojikiston,

“Yashil” energiya

Dunyoda energiyaga bo‘lgan talab tobora ortib borayotgan, ayrim hududlarda energiya ta‘minoti bilan bog‘liq muammolar kuchayayotgan ayni paytda tabiat va inson salomatligi uchun xavfsiz, barqaror energiya manbalariga ehtiyoj ham oshib bormoqda. Ko‘mir, neft va gazdan keng foydalanish esa atmosferaga chiqarilayotgan zararli moddalar, iqlim o‘zgarishi va tabiiy resurslarning qisqarishi kabi muammolarni yanada dolzarblashtirmoqda. Shu bois, quyosh, suv va shamol singari qayta tiklanuvchi, ekologik toza energiya manbalariga talab kun sayin ortib bormoqda.

Yurtimizda ham bu ehtiyojdan kelib chiqib, energetika sohasini diversifikatsiya qilish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng rivojlantirish, gidroenergetika salohiyatidan samarali foydalanish va “yashil iqtisodiyot” tamoyillarini hayotga izchil tatbiq etish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan ishlar bugun reja va dasturlardagina emas, balki mamlakatimizning turli hududlarida ishga tushayotgan yangi energetika inshootlarida ham o‘zining amaliy ifodasini topmoqda.

20-avgust kuni Bo‘stonliqda Chorbog‘ shamol elektr stansiyasining ochilishi bo‘lib o‘tdi.



BO‘STONLIQDA 20 MVT QUVVATGA EGA
SHAMOL ELEKTR STANSIYASI ISHGA TUSHIRILDI

Inson shamolning kuchini anglaganiga necha asrlar bo‘ldi. Qadimda uning qudratidan shamol tegirmonlarida foydalanildi, yelkanli kemalar uning izmida dengizlarni kezdi. Bugun zamonaviy texnologiyalar shamolning kuchini elektr energiyasiga aylantirish imkonini bermoqda.



Bo‘stonliqning so‘lim tabiati, saloblati tog‘lari va kengliklari yo‘l boshidanoq kishini o‘ziga maftun etadi. Tog‘lar bag‘riga yaqinlashganimiz sari manzara tobora o‘zgara boshladi. Uzoqdan Chorvoq suv ombori ko‘zga tashlanadi. Tog‘lar orasida yastanib yotgan moviylik sahnasi go‘yo tabiatning o‘zi chizgan suratdek. Biz esa yo‘limizni davom ettirib, tog‘ bag‘irlab yuqoriga ko‘tarilamiz.

Balandlashib borganimiz sayin ko‘z o‘ngimizdagi manzaradan beixtiyor hayratga tushamiz. Tog‘ tepasida osmonga bo‘y cho‘zgan ulkan shamol turbinalari qad rostlagan. Inson qadami yetishi oson bo‘lmagan bu balandlikda bunday katta va zamonaviy inshootlarni ko‘rishning o‘zi kishida alohida hayrat uyg‘otadi. Bir paytlar bu tog‘larda erkin kezgan shamol bugun ana shu ulkan parraklarni aylantirib, inson manfaati uchun elektr energiyasini hosil qilmoqda.

To‘rtta zamonaviy turbinaning har biri 5 megavatt quvvatga ega bo‘lib, stansiyaning

umumiy quvvati 20 megavattni tashkil etadi. Yiliga 50 million kilovatt-soatgacha ekologik toza elektr energiyasi ishlab chiqarish imkoniyatiga ega bu stansiya qariyb 20 mingga xonadonning ehtiyojini ta‘minlash, elektr tarmoqlaridagi yuklamani kamaytirish va energetika tizimi barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Chorbog‘dagi bu ulkan loyiha O‘zbekiston va Xitoy o‘rtasidagi strategik sheriklik va samarali hamkorlikning yana bir amaliy natijasi bo‘ldi. Uni amalga oshirish uchun Xitoy hukumati

tomonidan 28 million dollar miqdorida beg‘araz grant ajratilgan. Raqamlar salmoqli, ammo tog‘ bag‘rida aylanayotgan parraklarga qarab, bu loyihaning eng katta qiymati — tabiat qudratini inson farovonligiga xizmat qiladigan energiyaga aylantirayotganida ekanini anglaysiz.

Chorbog‘dagi bu inshootning qiymatini yerlik odamlar yaxshi his qiladi. Turg‘un ota bilan shubhatimizda bunga amin bo‘ldik: “Ilgari kuchli shamol tursa, elektr uzilib, ba‘zan kunlab kelmay qolgan paytlar bo‘lardi. Hozir esa bunday holatlar deyarli uchramaydi. Odam qo‘ligul. Uni to‘g‘ri yo‘lda ishlatsa, katta natijalarga erishadi. Bugun bu stansiya mustaqilligimizning 35 yillik to‘yiga munosib to‘yona bo‘ldi deb baralla ayta olamiz”.

Stansiya faoliyati natijasida har yili yuz minglab kub metr tabiiy gaz va minglab tonna ko‘mir tejaldi, atmosferaga chiqariladigan issiqxona gazlari hajmi ham sezilarli qisqaradi. Ya‘ni tog‘lar bag‘rida aylanayotgan har bir parrak nafaqat xonadonlarga yorug‘lik, balki tabiatga ham

yengillik olib keladi. Bu esa yurtimizda ekologik barqarorlikni ta‘minlash, uglerod izini kamaytirish va iqlim bo‘yicha xalqaro majburiyatlarni bajarish yo‘lidagi amaliy qadamdir.

Shu bois, Chorbog‘ shamol elektr stansiyasining ishga tushirilishi yurtimizda “yashil” energiya ulushini oshirish, xalqaro hamkorlikni mustahkamlash va aholini ekologik

toza elektr energiyasi bilan ta‘minlash yo‘lidagi yana bir muhim qadamdir.

Qaytar ekanmiz, yo‘l bo‘yidagi manzaraga yana bir bor nazar tashlaymiz. Pastda Chorvoq suv ombori, tepada esa tog‘ shamolida aylanayotgan ulkan parraklar. Bir necha soat avval biz oddiy bir energetika obyektingin ochilishini yoritish uchun kelgan edik. Ammo bu yerda ko‘rganlarimiz voqeaga boshqacha baho berishga undaydi. Gap faqat 20 megavatt quvvat, 50 million kilovatt-soat elektr energiyasi yoki tejaladigan yoiqlig‘ida emas.

Gap shundaki, mamlakatning energetikaga bo‘lgan ehtiyoji oshib borayotgan bir paytda tabiatning o‘zida mavjud imkoniyatni ishga solishni o‘rganyapmiz. Kechagina kuchli shamolni oddiy tabiiy hodisa sifatida qabul qilgan odam bugun uning iqtisodiy qiymatini ko‘rib turibdi. Turg‘un o‘taning “odam qo‘ligul” degan gapi ham, nazarimizda, aynan shu yerda o‘z tasdig‘ini topadi.

Sardor TOLLIBOYEV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



Abdumannob RAHIMOV,
Konstitutsiyaviy sud sudyasi,
yuridik fanlar doktori

Yaqinda Prezidentimizning “Odil sudlov — 2030”: Yangi O‘zbekistonda inson huquqlarini ishonchli himoya qiluvchi xalqchil va adolati sud tizimini barpo etish strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilindi. Ushbu hujjat kelgusida mamlakatimiz sud hokimiyati tizimining butunlay yangicha mazmunda faoliyat yuritishiga huquqiy asos bo‘ladi desak, mubolag‘a emas. Lo‘nda aytganda, tizimda shaffoflik va chin ma‘noda adolat qaror topadi. Mazkur farmonning asosiy g‘oyasi, maqsadi va vazifalari haqida so‘z borar ekan, albatta, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz va boshqa qonunchilik hujjatlarida mustahkamlab qo‘yilgan inson huquq va erkinliklari daxlsizligi hamda ulardan sud qarorisiz mahrum etish yoki cheklab qo‘yishga hech kim haqli emasligi, shuningdek, har kimga o‘z huquq va

“

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya-mizning yana bir muhim jihati inson huquqlariga taalluqli moddalaridagi normalarning 37 tadan 98 taga yetkazilganida. Demak, Konstitutsiyada inson huquqlari kafolatlari faqat yangi moddalar bilan emas, balki yangi normalar bilan ham boyitildi. Ular yangicha mazmun kasb etdi.

erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlarining hamda boshqa tashkilotlarning, mansabdor shaxslarning qonunga xilof qarorlari, harakatlari va harakatsizligi ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlarini so‘zsiz ta‘minlashga qaratilgan.

2023-yil 30-aprelga qadar amalda bo‘lgan bosh qonunimizda inson huquqlariga odil 23 modda mavjud bo‘lgan bo‘lsa, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda bunday moddalar 34 taga yetkazildi. Inson huquqlariga oid yangi 11 ta modda o‘z aksini topdi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning yana bir muhim jihati inson huquqlariga taalluqli moddalaridagi normalarning 37 tadan 98 taga yetkazilganida. Demak, Konstitutsiyada inson huquqlari kafolatlari faqat yangi moddalar bilan emas, balki yangi normalar bilan ham boyitildi. Ular yangicha mazmun kasb etdi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning eng muhim, ta‘bir joiz bo‘lsa, kuchli va ta‘sirchan jihatlardan biri inson huquqlarining kafolatlarini belgilashga yangicha yondashuvdadir. Dunyoning kamdan kam davlatlari Konstitutsiyasida uchraydigan bir norma asosiy qonunimizda o‘z aksini topdi. Uning 54-moddasida “Insonning huquq va erkinliklarini ta‘minlash davlatning oliy maqsadidir. Davlat inson hamda fuqaroning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta‘minlaydi”, deb qat‘iy mustahkamlab qo‘yildi. Bu bilan davlat zimmasiga o‘ta mas‘uliyatli vazifa konstitutsiyaviy darajada yuklatildi.

Prezidentimiz farmonida belgilangan xalqchil va adolati sud tizimi qanday bo‘ladi?

Uning mohiyati hamda ushbu tizimni joriy etishdan ko‘zlangan maqsad nima?

“Xalqchil” so‘zi xalq bilan chambarchas bog‘liq. Shuningdek, uning ruhi, madaniyati, manfaatlari va dunyoqarashiga mos keladigan, hammabop degan ma‘noni anglatadi. Masalan, badiiy tilimiz, kundalik suhbatlarimizda qo‘llanadigan xalqchil asar, xalqchil san‘at degan atamalar bunga misol bo‘ladi. “Xalqchil” so‘zi zamirida insonlarning dardini tinglay oladigan, ularning manfaatlariga xizmat qiladigan jarayonlarni ham tushunish mumkin.

Adolat so‘zi ma‘nosini ko‘pchiligimiz yaxshi bilamiz. U odillik, haqqoniylik, to‘g‘rilik va hamma uchun barobar bo‘lgan haqiqat talablariga amal qilishdir. Sudlarda ishlarni to‘g‘ri, insof bilan ko‘rish, zulm va haqsizlikka yo‘l qo‘ymaslik adolatdandir.


Farmonda ustuvor yo‘nalishlar belgilangan bo‘lib, mamlakat sud tizimini isloh qilish olti ustunga tayangan holda amalga oshiriladi.

Birinchisi — “xalqchil sud”. Sud tizimi shaffofligi, sud jarayonlari va sud faoliyatiga oid axborotdan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish orqali uning ochiqligini ta‘minlash va jamiyatda sudga mutlaq ishonchni qaror toptirish, byurokratiyadan butunlay xoli tizimga aylantirish.

Ikkinchisi — “adolat ko‘rg‘oni”. Inson huquqlari ustuvorligini so‘zsiz ta‘minlaydigan, har qanday ta‘sir va aralashuvlardan xoli, mustaqil odil sudlov tizimini mustahkamlash.

Uchinchisi — “kafolatlangan adolat”. Qonuniy, adolati va asoslanirilgan sud qarorlarini qabul qilish, ularning sifati va barqarorligini ta‘minlash orqali fuqarolarning buzilgan huquqlarini suda tiklash kafolatlarini kuchaytirish.

To‘rtinchisi — “adolat posbonlari”. Xalq xizmatida bo‘lgan, yuksak ma‘naviy va professional fazilatlarga ega, adolat mezonlariga qat‘iy rioya qiluvchi



sudyalar korpusini shakllantirish.

Beshinchisi — “raqamli odil sudlov”. Sud ish yurituvini to‘liq raqamlashtirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali fuqarolar uchun ortiqcha ovoragarchiliksiz, qulay va tezkor sud muhokamasi imkoniyatini yaratish.

Oltinchisi — “xalqaro e‘tirof”. Inson huquqlari sohasidagi ilg‘or xalqaro standartlarni milliy sud amaliyotiga implementatsiya qilish va mamlakatning xalqaro maydondagi nufuzini yuksaltirish.

“Odil sudlov — 2030” strategiyasidagi vazifalar ijrosi mamlakatimizda yaqin kelajakda sud tizimining tizimli va bosqichma-bosqich isloh qilinishi davlat hokimiyati, xususan, sud hokimiyatining tom ma‘noda mustaqilligini ta‘minlash barobarida uni “adolat ko‘rg‘oni”ga aylantirish, inson qadrini ulug‘lash, uning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini sud orqali himoya qilishni sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish hamda sud protsessiga zamonaviy huquqiy mexanizm va institutlarni joriy qilish orqali xalqchil va adolati sud tizimini barpo etish maqsad etib belgilangan.

Eng muhimi, Prezidentimiz muntazam ta‘kidlab kelayotganidek, kelgusida mamlakatimizda odil sudlovni amalga oshirish jarayoniga hech kimning aralashishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Bu esa, o‘z navbatida, inson hamda fuqaroning huquq va erkinliklari konstitutsiyaviy kafolatlari ta‘minlanishining muhim shartidir.

Bugun universitet oldida turgan asosiy vazifa bilim berish bilan kifoyalanmasdan, bilimni amaliyotga, g‘oyani loyihaga, loyihani biznesga, biznesni esa yangi ish o‘rinlari va ijtimoiy farovonlikka aylantira oladigan avlodni tarbiyalashdir.



TA’LIM VA IQTISODIYOT UYG’UNLIGI oliy o‘quv yurtlari uchun ham muhim chaqiriq

“Mamlakatimizda zamonaviy fikrlaydigan, o‘z biznesini kengaytirish uchun yangilikka intilayotgan yangi avlod tadbirkorlari shakllanmoqda. Bu esa yurtimizning ertangi kuni va taraqqiyoti uchun juda katta kuch va ishonchdir”, dedi davlatimiz rahbari tadbirkorlar bilan uchrashuvda.

Mazkur muloqotga oliy ta‘lim tizimi nuqtayi nazaridan qaraganda, uning ahamiyati yanada kengroq namoyon bo‘ladi. Chunki bugungi iqtisodiy taraqqiyotning asosiy omili nafaqat investitsiya, kredit yoki yangi korxonalar, balki bilimli, zamonaviy kasb va ko‘nikmalarga ega, innovatsion fikrlaydigan inson kapitalidir. Demak, tadbirkorlikning yangi bosqichi ta‘lim tizimida ham shunga monand yuksalishni taqozo etmoqda.

So‘nggi yillarda tadbirkorlikni rivojlantirish borasida katta natijalarga erishildi. Prezidentimiz nutqida qayd etilgan 84 ta qonun, 861 ta farmon va qaror, 450 trillion so‘mlik kredit portfeli hamda 650 trillion so‘mlik soliq va bojxona imtiyozlari mamlakatimizda biznes yuritish sharoitlari sezilarli darajada o‘zgarganini ko‘rsatadi. Ammo bu raqamlarning ortida yana bir muhim haqiqat bor: har bir yangi korxona, loyiha va ish o‘rinlari uchun malakali mutaxassislar zarur.

Demak, tadbirkor “biznesni boshlash” bosqichidan “kapitalni ko‘paytirish” bosqichiga o‘tayotgan bir paytda ta‘lim tizimi ham o‘z bitiruvchilarini o‘zlashtirgan bilimlarini amaliyotda qo‘llay oladigan, muammoni tezkor hal qilish ko‘nikmasiga ega va yangi qiymat yaratadigan kadrlar sifatida tayyorlashi kerak. Bu jihatdan oliy ta‘lim muassasalari oldida turgan vazifa, birinchi navbatda, ilm-fan, ishlab chiqarish va tadbirkorlik o‘rtasidagi aloqalarni yanada mustahkamlashdir.

Farg‘ona davlat universitetida amalga oshirilayotgan ishlar bunga yaqqol misol bo‘la oladi. 2026-yilda oliygohni 6890 nafar talaba tamomladi. 2026-yil mart oyida bitiruvchilarni barvaqt ish bilan ta‘minlash bo‘yicha “yo‘l xaritasi” va vaqtincha ishsiz bitiruvchilar bilan ishlashga qaratilgan chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqildi. Tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan “Kelajakka qadam” dasturi orqali 2025-yilda 334 ta loyihaga 8 milliard 64 million so‘m ajratilib, 352 nafar bitiruvchining bandligi ta‘minlangan. 2026-yil boshidan esa 286 ta loyiha uchun 5 milliard 563 million so‘m mablag‘ ajratilib, 286 nafar bitiruvchi ishga joylashtirilgan.

Yana bir yo‘nalish 2025-yil 7-8-oktabr kunlari o‘tkazilgan O‘zbekiston — Belarus II ta‘lim forumi doirasida universitetning ilmiy-amaliy loyihalari, xususan, agrar yo‘nalishdagi ishlammalar xorijiy delegatsiya tomonidan yuqori baholandi. Universitetning BMTning oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti bilan hamkorlikda tashkil etilgan “aqli” dehqonchilik issiqxonasi resurslarni tejash, raqamli boshqaruv va zamonaviy agroteknologiyalarni amaliyotga joriy etishning muhim namunasidir. Avtomatlashtirilgan tizim asosida 8000 tup bodring yetishtirilayotgan ilmiy ishlanmaning amaliy samaradorligini ko‘rsatadi.

Asalarichilik kovorking markazida asalari oilalarini ko‘paytirish, nasli ana arilar yetishtirish va tabiiy asal ishlab chiqarish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar ham ta‘lim bilan tadbirkorlikning uyg‘unlashayotganidan dalolat. Bundan tashqari, universitetda tashkil etilgan beshta kovorking markazining umumiy qiymati 1 milliard 170 million so‘mni tashkil etadi. Ushbu markazlar anorchilik, uzumchilik, chorvachilik, asalarichilik hamda tarjima faoliyati yo‘nalishlarini qamrab olgan. Muhimi, bu maskanlarda professor-o‘qituvchilar, tadqiqotchilar va talabalar birgalikda ishlamoqda. Natijada nazariy bilim amaliy tajriba bilan boyib, ilmiy g‘oyalarni real loyihalarga aylannoqda.

Shuningdek, O‘zbekiston — Belarus III hududlararo forumida Farg‘ona va Gomel viloyatlari o‘rtasida imzolangan yangi “yo‘l xaritasi” ham iqtisodiy hamkorlikning inson hayoti bilan bog‘liq jihatlarni ko‘rsatib berdi. Farg‘onaning Beshariq va Farg‘ona tumanlarida belaruslik investorlar ishtirokida umumiy qiymati 23 million dollarlik ikki



loyiha amalga oshirilishi, natijada 150 ta yangi ish o‘rmi yaratilishi rejalashtirilgani shunchaki statistik ko‘rsatkich emas. Bu 150 ta olinang daromad manbai, barqaror ish joyi va ertangi kunga ishonchi deganidir.

Yangi loyihalarning qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash, shok usulida muzlatish va zamonaviy qadoqlashga ixtisoslashgani ham alohida ahamiyatga ega. Ikki korxonaning yiliga jami 15 ming tonna mahsulotni qayta ishlashi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini xomashyo sifatida sotishdan tayyor va yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulot ishlab chiqarishga o‘tish imkonini beradi.



Bunday jarayonda esa zamonaviy texnologiyani biladigan agronom, muhandis, texnolog, logist, marketolog va boshqa ko‘plab mutaxassislarga ehtiyoj ortishi tabiiy. Shunday ekan, investitsiya va ta‘lim bir-biridan ajralgan tushunchalar emas. Yangi korxonaga kiritilgan investitsiya ertami-kechmi kadrlarga bo‘lgan talabni yuzaga chiqaradi. Kadrlar esa ta‘lim tizimida tayyorlanadi.

Farg‘ona quritilgan mevalarining Belarusdagi “Smakata” savdo tarmog‘i orqali eksport qilinishi ham ana shu zanjirming yana bir bo‘g‘inidir. Eksport hajmini 3 million dollarga yetkazish rejalarini mahalliy mahsulotlarning xalqaro bozordagi imkoniyatlarini kengaytiradi. Ammo xalqaro bozorga chiqish uchun faqat sifatli mahsulotning o‘zi yetarli emas. Xorijiy til, xalqaro standartlar, sertifikatlashirish,



2026-yil 22-avgust, 170-som

3.0” konsepsiyasi doirasida B2S platformasini yaratish, xalqaro akseleratorlarga chiqish va har bir fakultetda ilmiy-innovatsion laboratoriyalar tashkil etish kabi rejalar bu yo‘nalishdagi ishlarni yanada kuchaytirishni talab qilmoqda.

Chindan ham davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan “Biznes start”, “Biznes lift”, “Biznes yuksalish” kabi dasturlar tadbirkorlikning turli bosqichlarini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan. Bu tashabbuslar yoshlar uchun ham katta imkoniyatlar yaratadi. Biroq undan samarali foydalanish uchun moliyaviy savodxonlik, biznes-reja tuzish, marketing, raqamli texnologiyalar, huquqiy bilim va boshqaruv ko‘nikmalari zarur.

Shu sababli universitetlarda tadbirkorlik ta‘limini faqat nazariy fan sifatida emas, balki amaliy faoliyat bilan bog‘langan tizim sifatida rivojlantirish zarur. Talabalar o‘qish davridayoq loyiha tuzishi, uni himoya qilishi, bozorni o‘rganishi, biznes model ishlab chiqishi va o‘z g‘oyasini investor oldida taqdim eta olishi kerak. “Bond sanoat zonaları” doirasida R&D markazlari va laboratoriyalarning tashkil etilishi ham oliy ta‘lim uchun yangi imkoniyatlarni ochadi. Universitetlarning ilmiy salohiyatini ishlab chiqarish bilan bog‘lash, olim va tadbirkorni bir loyiha atrofida birlashtirish zamonaviy iqtisodiyotning muhim talabidir.

Prezidentimiz nutqidagi oliy ta‘limga qaratilgan eng muhim topshiriqlardan biri universitetlarning kunning ikkinchi yarmida ham faol ishlashi, yoshlarni zamonaviy kasblarga o‘rgatishidir. Bu topshiriq oliygohlarning mavjud infratuzilmasidan samarali foydalanish masalasini kun tartibiga olib chiqadi.

Auditoriyalar, laboratoriyalar, kompyuter xonalari, kutubxonalar va boshqa infratuzilmalar kunning ikkinchi yarmida ham yoshlarning kasbiy tayyorgarligi uchun xizmat qilishi mumkin. Mazkur yondashuv universitetni faqat diplom beruvchi muassasadan kasb, ko‘nikma, innovatsiya va tadbirkorlik markaziga aylantirish imkonini beradi. Ayniqsa, “yashil” energetika, agronomiya, elektrotexnika, qurilish, AT, sun‘iy intellekt kabi zamonaviy yo‘nalishlarda qisqa muddatli amaliy kurslarni yo‘lga qo‘yish yoshlarning mehnat bozoriga tezroq kirib borishiga yordam beradi.

Bir million yoshni zamonaviy kasblarga o‘rgatishdek katta maqsadning amalga oshishi uchun oliy ta‘lim, texnikumlar, tadbirkorlik subyektlari va ish beruvchilar o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish zarur. Ushbu jarayonda xorijiy tajriba ham muhim. Xususan, “ACWA” kompaniyasining ayrim hududlarda texnikumlarni jihozlab, yoshlarni zamonaviy kasblarga o‘rgatayotgani ta‘lim va biznes hamkorligining amaliy modelini namoyon etadi. Demak, investor faqat korxona qurib, mahsulot ishlab chiqarib qolmasdan, o‘zi uchun zarur kadrlarni tayyorlash jarayonida ham ishtirok etishi muhim.

Shu bilan birga, bugungi iqtisodiy siyosatda har bir hududning o‘ziga xos salohiyatidan foydalanishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Bu esa hududlardagi oliy ta‘lim muassasalarining ham o‘z mintaqasi ehtiyojlariga yanada yaqinlashishni talab qiladi. Farg‘ona vodiysida to‘qimachilik, mashinasozlik va qishloq xo‘jaligi rivojlanayotgan ekan, bu yo‘nalishlarga mos muhandis, texnolog, avtomatlashtirish mutaxassisi, agronom va boshqa kadrlarni tayyorlash zarur.

Bir so‘z bilan aytganda, bugun universitet oldida turgan asosiy vazifa bilim berish bilan kifoyalanmasdan, bilimni amaliyotga, g‘oyani loyihaga, loyihani biznesga, biznesni esa yangi ish o‘rinlari va ijtimoiy farovonlikka aylantira oladigan avlodni tarbiyalashdir.

Zero, iqtisodiyotning kelajagi korxonalar soni bilangina emas, balki shu korxonalarda ishlaydigan insonlarning bilim va salohiyati bilan belgilanadi. Shunday ekan, universitetlar yangi maqomga — kasb, ilm-fan, innovatsiya va tadbirkorlik markazi maqomiga ko‘tarilishi bugungi kunning tabiiy talabi bo‘lib bormoqda. Eng muhimi, bu inson kapitaliga tayanadigan yangi O‘zbekiston taraqqiyotining muhim shartidir.

Bahodirjon
SHERMUHAMMADOV,
Farg‘ona davlat
universiteti rektori



Ba‘zan shodlikdan to‘lib toshganda, goho esa kichik ko‘ngilsizlikdan ko‘ksingizning chap qismida nimadir depsinadi. Agar bu tez-tez sodir bo‘lsa, og‘riq his qilasiz. Tushunasizki, yuragingiz bezovta bo‘lyapti. Bu nimadan? Ko‘pincha biz kasalliklarga qarshi kurashamiz. Balki hayot tarzini o‘zgartirish uchun kurashish vaqti kelgandir? Zero, kasallikning sababini aniqlamay turib, uning oqibatlarini yengishga urinish — teshik idishga suv to‘ldirishday gap.

Bugun sog‘lom turmush masalasiga yana bir nuqtayi nazardan qarash vaqti keldi. Salomatligimizga malakali munosabatda bo‘lish har birimizdan mas‘uliyat talab qiladi. Sog‘lom inson tasodifan shakllanmaydi. Uni sog‘lom muhit tarbiyalaydi.

“Biz yurakni davolaymiz, hayotni emas”

So‘nggi ma‘lumotlarga ko‘ra, O‘zbekistonda yurak-qon tomir xastaliklari umumiy o‘lim sonining 57 foizini tashkil etmoqda. Statistika qiziq: u hamma narsani hisoblaydi, lekin eng muhim narsani emas. Masalan, qancha odam yurak xastaligidan vafot etganini aytadi. Ammo nega inson o‘z yuragini kundalik turmushida asta-sekin charchatib borishini aytib bera olmaydi. Deylik, chap ko‘ksingizda og‘irlik, bosim va sanchiq his qildingiz. Shifokorga murojaat qilishingiz tabiiy. U yuragingizni davolaydi. Ammo yurakka olib boruvchi yo‘lni kim davolaydi? Bugun goho g‘j‘im, goho og‘riq orqali sog‘lig‘ingiz haqida signal berayotgan yuragingizni asrayapsizmi? Hech u bilan gaplashib ko‘rdingizmi? Bugungi og‘riqlar oqibati nima bilan tugashi mumkinligini bilasizmi?

— Yurak xastalanishi — hayot uchun jiddiy xavf, — deydi Milliy tibbiyot markazi direktori Maqsud Saidov. — Biz, shifokorlar yurak salomatligini tiklashimiz mumkin, ammo hayotni emas. Ba‘zan shunday hollar bo‘ladiki, uni samarali davolaganimiz bilan xatar butunlay ortda qolmaydi. Shifokor tomonidan buyirilgan dori-darmon, xususan, qon bosimini tushiruvchi, qon ivishining oldini oluvchi, xolesterin miqdorini pasaytiruvchi preparatlarni o‘z vaqtida va belgilangan miqdorda qabul qilish kasallikni yengishga yordam beradi. Ammo baribir gap insonning o‘zida qoladi.

Inson vaqtni qadrlasa, harakatni hayotning bir qismi deb bilsa, ortiqcha iste‘molga emas, me‘yorga o‘rgansa salomatligida muammo kuzatilmaydi. Asta-sekinlik bilan olib boriladigan ruhiy barqarorlik va jismoniy faollik kasallikka qarshi kurashishda bebaho omil sanaladi.

— Infarkt va insult kabi jiddiy kasalliklar xavfini kamaytirishda jismoniy mashg‘ulotlarning ahamiyati beqiyos, — deydi mutaxassis. — Ayniqsa, piyoda yurishning foydasi katta. Kuniga 30 daqiqa yayov harakatlanish yurak faoliyatini yaxshilaydi. Bunda tananing barcha muskullari harakatga keladi. Qolaversa, u ichki organlar faoliyatiga ham ijobiy ta‘sir etadi. Natijada organizmda moddalar almashinuvi yaxshilanib, yurak tomlari, shuningdek, nafas va asab tizimi mustahkamlanadi. Ertalab ishga ketayotgan payt piyoda yurish ham juda foydali. Bu vaqtda inson kechasi uxlab, dam olgani sababidan to‘xtamay, 30-40 daqiqa bemalol yayov keza oladi.

Jismoniy yuklama bemor holatiga qarab, shifokor ko‘rsatmasiga binoan, bosqichma-bosqich oshirib borilishi mumkin. Ushbu jarayonda velotrenajyor, yengil jismoniy mashqlar ham foydali. Rehabilitatsiya davrida sho‘r, yog‘li, xolesterin va glyukozaga boy mahsulotlar, gazlangan ichimliklar, qovurilgan taomlar iste‘mol qilishdan tiyilish lozim.



Risolat MADIYEVA, “Yangi O‘zbekiston” muxbiri

— Kasallikdan keyingi davrda imkon qadar stress, qo‘rquv, tushkunlik va xavotir hissidan saqlanishga harakat qilish zarur. Ruhiy barqarorlikda gap ko‘p, — deydi mutaxassis.

Ruhning sokin bo‘lishi ahamiyati

Zamonamiz kishilari stressdan xoli bo‘lishi imkonsiz. Ishdagi bosim, ijtimoiy talablar va moliyaviy majburiyatlar ortishi inson ruhini toliqtiradi. Bu o‘z-o‘zidan yurak salomatligida iz qoldiradi. Chunki yurak faqat qon haydovchi a‘zo emas, hayotning har bir muvulishida duch keladiganimiz umid va umidsizlik, xiyonat, iztirob, quvonchni avval o‘zidan o‘tkazib, keyin bizga his qildiradigan nozik a‘zodir. Yurakning charchog‘i hamma vaqt ham ishning ko‘pligidan bo‘lavermaydi. Ko‘pincha uni ish emas, og‘ir o‘ylar toliqtiradi.

Fikr gigiyenasi degan tushuncha bor. Bu his-tuyg‘ular muvozanati ham deyiladi. Ruhiy barqarorlikni o‘rganish sog‘lom yashashning asosi. Xo‘sh, bunga qanday erishish mumkin?

— Ba‘zan inson ketma-ket boshidan kechirgan ko‘ngilsizliklar ta‘sirida hamma narsadan salbiy oqibat kutadigan bo‘lib qoladi, — deydi tibbiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori Gulasal Ernayeva. — Bunday fikrlash insonning ruhiy va hissiy holatiga jiddiy ta‘sir ko‘rsatishi, depressiya, xavotir va boshqa psixologik muammolarga olib kelishi mumkin.

Uning asosiy shakllaridan biri oq-qora (mutlaq) fikrlashdir. Ushbu yondashuv bilan inson dunyoni faqat “yaxshi” yoki “yomon”, “to‘g‘ri” yoki “noto‘g‘ri” nuqtayi nazaridan ko‘radi. Haqiqatni idrok etishda gradatsiya (asta-sekin yuksalish)ning yo‘qligi, vaziyatni sun‘iy murakkablashtirish cheksiz norozilik va umidsizlik hissini keltirib chiqarishi mumkin. Eng yomonini oldindan ko‘rish shakli ham keng tarqalgan bo‘lib, unda inson har doim



haqiqiy sharoitlardan qat‘i nazar, voqealarning eng salbiy rivojlanishini kutadi. Bu haddan tashqari xavotir va kelajakdan qo‘rqishga olib kelishi mumkin. Yurak atalmish nozik a‘zo esa toliqqandan toliqib boraveradi.

Salbiy fikrlaringizni tushunish va tan olish sizning aqliy idrokingizni o‘zgartirishning birinchi qadamidir. Mutaxassislar bu odatni yengish uchun maxsus strategiya va texnikani tavsiya qilishadi.

Birinchidan, xavotirni yenging. U diqqatni noto‘g‘ri bo‘lgan hamma narsaga qaratadi. Buni tan olish muhim. Hayotdagi ijobiy jihatlar va muvaffaqiyatlarga e‘tibor qaratishni mashq qilish kerak. Keyin bu odatga aylanadi. Odatlar esa turmush tarzimizni belgilaydi.

Ikkinchidan, salbiy bashoratlar noto‘g‘ri va asossiz bo‘lishi mumkinligini tan olish kerak. Fikrlaringizni hamda vaziyatlarni baholashingizni oqilona tahlil qilish foydalidir.

Uchinchi strategiya — diqqatingizni ijobiy fikrlashga yo‘naltiring. Faqat muammolarga e‘tibor qaratish o‘rniga, imkoniyatlar va yechimlarga ko‘proq yondashilsa, maqsadga muvofiq.

Optimizm universal xususiyat emas. Ijobiy his-tuyg‘ular ong ostiga salbiy his-tuyg‘ularga qaraganda mustahkam o‘rnashishi uchun ko‘proq vaqt talab etadi. Ammo salbiy fikrlashni kuzatib borish va “ortiqcha reaksiya”ning oldini olish muhim. Mutaxassislar ta‘kidlashicha, meditatsiya amaliyotlari bunga yordam berishi mumkin. Olimlar meditatsiya bilan shug‘ullanadiganlar hayotga nisbatan optimistik nuqtayi nazar va ijobiy his-tuyg‘ular bilan ajralib turishini isbotlagan.

Meditatsiyaning boshqa ko‘plab ijobiy jihatlarini ham bor. Masalan, u odamlarga ko‘proq atrofda voqea-hodisalarga ongli ravishda yondashish va ijtimoiy hayotga yaxshiroq moslashishga imkon beradi. Bu mashg‘ulot bilan shug‘ullanadiganlar ruhiy kasalliklarga kamroq moyil bo‘ladi. Shunday ekan, fikrlaringizni kuzatib boring va faqat o‘zingiz xohlagan xatti-harakatlar modellari yaratib. Chunki biz miyamizning “me‘morlarimiz” va o‘zimizni o‘zimiz shakllantiramiz.

Tana vaznining ortishi

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti tahliliga ko‘ra, dunyo bo‘yicha har sakkiz kishidan biri semizlikdan aziyat chekadi. Qolaversa, 18 yosh va undan katta aholi orasida 2,5 milliard odam ortiqcha vaznga ega. Bu esa ko‘plab kasalliklarni keltirib chiqaruvchi omildir. Tanada ortiqcha yog‘ to‘planishi, ayniqsa, yurak faoliyati uchun juda zararli.



— Har bir hujayra uchun kislorod va ozuqa zarur, — deydi Respublika ixtisoslashtirilgan kardiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi maslahat poliklinikasi mudiri Oybek O‘rinov. — Shuning hisobidan organizmda qon aylanishi yaxshilanadi. Yurak me‘yorida urib, tana bo‘ylab yetarli miqdorda qon haydaydi.

Bunday vaziyatda doimiy zo‘riqish yurak mushaklarini toliqtiradi. Oqibatda uning hajmi kattalashadi. Ko‘pincha “asosiy nasos” vazifasini o‘tovchi chap qorincha aziyat chekadi va uning gipertrofiyasi boshlanadi. Odatda, qorincha kengayishi birdan noxush odatlarga olib kelmasa-da, vaqt o‘tishi bilan u qonni samarali haydash qobiliyatini yo‘qotadi. Natijada yurak yetishmovchiligi xavfi ortadi.

Ushbu a‘zo atrofida va ichida hosil bo‘lgan yog‘ o‘zidan miokard yallig‘lanishiga olib keluvchi moddalar ajratadi. Oqibatda aritmiya (yurakning qisqarish ritmining buzilishi) ehtimoli yuzaga keladi. Shuningdek, yog‘ to‘qimalari qon tomirlarini toraytirish va organizmda natriy saqlash xususiyatiga ega moddalarni ishlab chiqaradi. Bu esa qon bosimini oshirib, gipertenziya rivojlanishiga olib kelishi mumkin.

Tana vazni og‘ir odamlarda ko‘pincha xolesterin va triglitserid miqdori ko‘payib, arteriyalarning ichki devorlarida tiqinlar hosil bo‘ladi, qon tomirlarini toraytiradi. Qolaversa, semizlik natijasida yurakda kislorod yetishmasligi (ishemiya) yuzaga keladi. Mazkur holat infarkt, stenokardiya va boshqa jiddiy xastaliklar keltirib chiqarish ehtimoli bor.

Yana bir fakt: ortiqcha vaznli odamlarda insulining nisbatan sezgirlik kamayadi. Mazkur holat qandli diabetning 2-turi paydo bo‘lishiga olib kelishi mumkin. Bu esa yurak-qon tomir kasalliklarining rivojlanishini tezlashtiradi.

Unutmang, tana vaznining, hatto 5-10 foizga kamayishi ham yurak-qon tomir tizimidagi zo‘riqishni sezilarli darajada pasaytiradi va salomatlikni yaxshilaydi.

Chunki ortiqcha vazn faqat estetik muammo emas. U yurak va butun qon aylanish tizimi uchun jiddiy xavf manbaidir. Vaznni nazorat qilish, sog‘lom ovqatlanish va jismoniy faollik bunday xastaliklarning oldini olishda muhim rol o‘ynaydi.

Madaniy kategoriya

Salomatlik haqida gap ketganda ko‘z oldimizga, eng avvalo, tibbiyot xodimlari va muassasalari keladi. Yangi klinikalar, zamonaviy uskunalar, malakali shifokorlar... Lekin bir savol ochiq qoladi: agar

elementlar va o‘zaro bog‘liq bo‘lgan madaniyat yo‘nalishlaridan tashkil topgan: ovqatlanish, harakatlanish va hissiyotlar madaniyati.

Demak, sog‘liq shifoxonada emas, insonning kundalik qarorlarida yaratiladi. Uni ertalabki nonushta, kechqurungi sayr, kitob o‘qish madaniyati, mehnat va dam olish muvozanati, hatto muloqot uslubi shakllantiradi.

Shu ma‘noda, sog‘lom turmush tibbiy tushuncha emas. U madaniy kategoriya.

JSST nima deydi?

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti 2050-yilgacha 11,5 millionta kasallanish holatining oldini olish bo‘yicha tavsiyalarini e‘lon qilgan edi. Tashkilotning avvalgi hisobotida keyingi o‘n yil davomida dunyo bo‘yicha kattalar o‘rtasida jismoniy faollik darajasi 5 foizga pasaygani ma‘lum qilingan, agar bu tendensiya davom etsa, 2030-yilgacha kamharakatlik ko‘rsatkichi 35 foizgacha oshishi mumkinligi ham aytilgandi.

Ushbu tahlillarga asoslanib tashkilotning Yevropa mintaqaviy byurosi e‘lon qilgan yangi qo‘llanmada jismoniy faollik targ‘ibotiga urg‘u berilgan. Undan o‘rin olgan ko‘rsatmalar sport mashg‘ulotlari orqali aholi salomatligini mustahkamlashni ko‘zda tutadi. Xususan, qo‘llanmada haftasiga 150 daqiqa o‘rtacha intensivlikdagi jismoniy faollik bilan shug‘ullanish tavsiya qilingan. Yoki 75 daqiqalik kuchli jismoniy faollik ham buning o‘rnini bosa oladi. Aks holda, kamharakatlik infarkt, insult, 2-tur qandli diabet, demans, ko‘krak va yo‘g‘on ichak saratoni kabi kasalliklarning rivojlanish xavfini oshiradi.

Xo‘sh, bu tavsiyalarga amal qilish orqali qanday natijalarga erishish mumkin?

Yangi qo‘llanmada bu savolning javobi ham aks etgan. Qayd etilishicha, agar Yevropa va Markaziy Osiyo mamlakatlari aholisi haftasiga 150 daqiqalik jismoniy faollikka erishsa, 2050-yilgacha 11,5 millionta kasallanish holatining oldini olsa bo‘ladi. Jumladan, 3,8 million kishi yurak-qon tomir xastaliklariga, 400 ming nafar odam saratonga chalinish xavfidan himoyalanaadi.

Qolaversa, bu orqali mintaq bo‘yicha yiliga bemorlar salomatligini tiklashga sarflanadigan 8 milliard yevro tejalandi.

Bu nega muhim?

Sog‘lom turmush targ‘iboti ba‘zan yuragingizga yetib bormasligi mumkin. “Sport bilan shug‘ullaning”, “To‘g‘ri ovqatlaning”, “Zararli odatlardan voz keching” kabi chaqiriqlar sizga ta‘sir qilishi ham bahstalab mavzu. Chunki insonni faqat ma‘lumot emas, ma‘no o‘zgartiradi. Nega u sog‘lom yashashi kerak? Bu savolga shaxsiy va ijtimoiy javob topilmaguncha, eng yaxshi tavsiya ham navbatdagi targ‘ibot bo‘lib qolaveradi. Har bir tongni umid bilan qarshi olish, har bir nafasni bebaho ne‘mat deb bilish, berilgan umrni munosib yashab o‘tishga intilish hayotni go‘zal qiladi. Tanasida og‘ir dardni ko‘tarib yurgan odamning qalbiga ilm, ijod, muhabbat, el-yurtga xizmat qilish, jondan aziz farzandlar kamolini ko‘rish baxti sig‘maydi. Sog‘liq hayotning oddiy ne‘mati emas. U orzular ro‘yobi, yuksak maqsadlar poydevori, umr atalmish yo‘lining go‘zal ma‘nosi. Hayotni qanday kechirish esa o‘zingizga bog‘liq. Sog‘lom turmush tarzini tabiiy hayot me‘yoriga aylantiradigan madaniyatni shakllantirib. Bu tanangizga kuch-quvvat, ruhingizga osoyishtalik, hayotga mehr uyg‘otadi. Oilangizda esa Vatan koriga yaraydigan asl farzandlar voyaga yetadi.

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalar tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlil chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas‘ul.
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

Qabulxona: (71) 233-56-33
E‘lonlar bo‘limi: (71) 233-70-98

E-mail: info@yuz.uz
Web-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05

Devonxona va ishonch telefoni:
(71) 233-56-60

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma G-846.
29305 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Munajat Mo‘minova
Musahhih: Malohat Mingboyeva
Dizayner: Zafar Ro‘ziyev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy